

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

GEOGRAFIYA VA UNI O`QITISH KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”

Tabiatshunoslik va geografiya fakulteti
dekani

_____ dots. Qodirov .G`.

“ ___ ” _____ 2013 y.

**5140700 – geografiya va IBA ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun**

GEOGRAFIYA DARSLARIDA FOYDALANILADIGAN KO'RGAZMALI QUROLLAR VA ULARDAN FOYDALANISH USULLARI. (9-SINF MISOLIDA)

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Siddiqova Ra`no

Ilmiy rahbar: i. f. n. Kamolov M

Ishni himoyaga tavsiya etaman: _____ iq. f. n. Kamolov M

BMI geografiya va uni o`qitish kafedrasini
yig'ilishining qarori bilan (Qaror № __, “ ___ ” _____ 2013-y.)
himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

g.f.n Hakimov Q _____

Jizzax – 2013

MUNDARIJA.

Kirish.....	3
I BOB. Maktab geografiya darslarida ko'rgazmali qurollardan foydalanish.	
1.1 5-6 sinf geografiya darslarida ko'rgazmali qurollardan foydalanish.....	8
1.2 7-8 sinf geografiya darslarida ko'rgazmali qurollardan foydalanish.....	17
1.3 Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fani darslarida ko'rgazmali qurollardan foydalanish.....	25
II BOB. Maktablarning 9-sinf Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fani darslarida ko'rgazmali qurollardan mavzular bo'yicha foydalanish.	
2.1 9-sinf Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fani umumiy mavzulari bo'yicha ko'rgazmali qurollardan foydalanish usullari.....	31
2.2 9-sinf Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fani aniq region mavzulari bo'yicha ko'rgazmali qurollardan foydalanish usullari.....	41
2.3 9-sinf Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.....	48
III BOB. 9-sinf geografiya darslarida ko'rgazmalilik uslubining amaliy ahamiyati.	
3.1 Muayyan mavzu bo'yicha ko'rgazmali I-soatlik dars bayoni.....	56
Xulosa.....	65

Kirish.

Ushbu malakaviy bitiruv ishi geografiya darslarida foydalaniladigan ko'rgazmali qurollar va ulardan foydalanish usullari (9-sinf misolida) hamda ularning tadbqiq qilishning afzalliklarini asoslab berishga bag'ishlangan.

Biz bu Malakaviy bitiruv ishni bajarish jarayonida hozirgi kungacha geografiya ta'limida ko'rgazmali qurollardan dars jarayonlarida foydalanish bo'yicha nashr qilingan ko'plab ilmiy uslubiy adabiyotlarni, uslubiy tavsiiyanomalarni "Xalq ta'limi" jurnali, "Ma'rifat" gazetasida chop etilgan ilmiy uslubiy maqolalarni o'rganib chiqdik va shu asosda geografik ta'lim jarayoniga ko'rgazmali qurollarni qo'llash bo'yicha o'z fikr mulohazalarimizni bayon etdik.

Geografiya ta'limida o'quvchilarni har tomonlama yetuk bilimdon bo'lib, yetishida ta'limni hayot bilan chambarchas bog'lab borishida o'quv qurollarining roli katta.

O'qitishdagi ko'rgazmalilik o'quvchilarning geografik tasavvur doiralarining kengayishiga, mavzuning tushunarli bo'lishiga va puxta o'zlashtirilishiga imkon beradi. Turli o'quv ko'rgazmalar, asboblar geografik bilimlar yaxshi o'zlashtirilishiga va xotirada uzoq saqlanishiga sababchi bo'ladi. Bu haqda K.D.Ushinskiy bunday degan edi: "Biz ravshan taasurotlarni ko'rish orqali hosil qilamiz, chunki biz o'zimiz eshitgan narsalarni osonroq tasavvur qilamiz. Ayni bir vaqtda ham ko'rish ham eshitish, ham muskul harakati yordami bilan hosil qilingantaasurot esa... ayniqsa, ravshan tasavvur hosil qiladi va xotirada uzoq saqlanadi".

Ko'rgazmali qo'llanmalar, xususan tasvirli qo'llanmalar ayrim tabiiy geografik hodisalar o'rtasidagi bog'lanishni, insonning tabiatga ta'sirini va uning turli sharoitdagi faoliyatini aks ettirib, o'quvchilarning dialektik-materialistik dunyoqarashini shakllantirishga va ularni milliy vatanparvarligi ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

Maktablarda geografiya fanini o'rganishda, xilma-xil metod va usullardan foydalanishda, dars sifatini yaxshilashda, uni mazmunli o'tishda hamda o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishda o'quv qurollarining roli kattadir. Darsni ko'rgazmali qurollardan foydalanib tashkil etish ayrim geografik tushunchalar mazmunini juda aniq tushunib olishga yordam beradi.

Geografiyani o'qitish metodikasiga doir mavjud qo'llanmalarda o'quv qurollari tushunchasi turlicha ifodalanadi.

Geografiya fani maktablarda boshlang'ich sinfdan boshlab "Tabiatshunoslik" o'tiladi va bunda o'quvchilarni tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar bilan tanishtirishni nazarda tutadi. Maktab atrofida ro'y beradigan hodisalarni kuzatish o'quvchilarda tabiat haqida dastlabki tasavvur va oddiy tushunchalarni shakllantiradi.

5-sinfda "Tabiiy geografiya fani" o'qitiladi va bu fan orqali o'quvchilar tevarak atrofdagi landshaft, tabiat va hodisalarning mohiyatini aniqlaydilar, bunda ular dunyoda g'ayri-tabiiy narsa yo'q ekanligiga, dunyoning moddiylikiga, inson tabiatda ro'y beradigan hodisa va qonuniyatlarni o'rganishi mumkin ekanligiga ishonch hosil qiladilar.

6-sinfda "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" fani maktab geografiyasi sistemasidagi dastlabki regional (aniq ma'lumotlar beruvchi) fandi. Fanning asosiy vazifasi o'quvchilarga butun materik va materik doirasidagi tabiiy geografik hududlar va okeanlarning tabiiy geografik xususiyatlari haqida tasavvur va xususiy tushunchalar sistemasini, shuningdek materiklarning aholisi va siyosiy xaritasi haqida ayrim ma'lumotlar berishdan iboratdir.

7-sinfda esa "O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi" fani o'qitiladi. Bunda ham dars davomida har xil turdagi xaritalardan va shu sinfga mo'ljallab chiqarilgan atlaslardan foydalanib, dars o'tishi mumkin.

8-sinfda "O'zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy geografiyasi" fani o'qiladi. Bunga O'zbekistonning sanoatini misol qilsak, yengil sanoat, og'ir sanoat va boshqa sanoat tugunlariga mo'ljallab chiqarilgan xaritalar mavjud va

ulardan dars davomida foydalanish maqsadga muvofiq. O'zbekiston atlasini ham ko'rgazmali qurol sifatida ishlatish mumkin.

9-sinfda "Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi" fani o'qitiladi. Bunda ham dunyoning siyosiy, iqtisodiy xaritalaridan, hamda I.A. Karimovning "O'zbekiston XXI-asr bo'sag'asida", "Buyuk kelajak sari" asarlaridan ham keng ko'lamda foydalanish mumkin.

O'quvchilarga darsni qay darajada tushuntirish albatta o'qituvchining mahoratiga va bilim darajasiga bog'liq bo'lib bunda o'qituvchidan mehnat talab etadi. Dars samaradorligining eng muhim sharti-barcha o'quvchilarning butun dars davomida faol ishlashlaridir.

Geografiya o'qituvchisi qanchalik tajribali, nutqi chiroyli, ravon va sodda bo'lmasin, u darsni quruq so'zlar bilan o'tmasligi kerak, u turli xil moslamalardan foydalanishi kerak. Bu moslamalar ko'rgazmali qo'llanmalarni ko'rsatish, saqlash va ixcham qilib joylash maqsadida foydalaniladigan yordamchi qurollardir.

Har bir o'quvchi darsda olgan ko'nikma va malakalari asosida bilimlarni mutsstaqil egallashi zarur bo'ladi. Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq umumiy o'rta ta'limning barcha bo'g'inlarida o'quvchilarning muntazam bilim olishi, ularda bilim olish ehtiyojini rivojlantirishni, o'quvchilarda mehnat ko'nikmalari, mustaqil ijodiy fikrlash, kasb tanlashga va atrof – muhitga ongli munosabatni hosil qilishni, o'z vataniga, xalqiga sadoqat, mehr – muhabbat ruhida tarbiyalash vazifalari belgilangan. Geografiya o'qitish metodikasi pedagogika fanlar tizimiga kiradi. Geografiya o'qitish metodikasining asosini maktab geografiyasi, xususan tabiiy va iqtisodiy geografiya hamda ular bilan aloqada bo'lgan kortografiya, geologiya, iqtisodi, biologiya, axloqshunoslik va boshqa ko'plab fanlar hisoblanadi. Ta'lim – tarbiyaning umumiy qonuniyatlarini didaktika tahlil qiladi. Boshqacha qilib aytganda, didaktikaning mohiyatini ta'lim—tarbiya jarayoni tashkil etadi. U aniq fanlar uchun ta'lim va tarbiya jarayoni bilan shug'ullanmaydi. Demak geografiya o'qitish metodikasi ilmiy pedagogik fan bo'lib, u o'qituvchilarga geografiyadan puxta bilim berish, ularni

har tomonlama etuk dunyoqarashga ega bo'lgan kishilar qilib tarbiyalash va o'qitiladigan geografiya fanining maqsadini, ta'lim vazifalari, mazmuni, metodlari hamda geografiya o'qitishning eng muhim vositalarini belgilab beradi. Geografiya o'qitish metodikasining asosiy fan sifatida universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtlari geografiya fakul'tetlarining o'quv rejasiga kiritilishi va uni o'rganishda ko'zda tutilgan maqsad, bu bo'lajak o'qituvchilarni maktabda geografiya o'qitishning ilmiy asoslari bilan qurollantirishdan iborat. Bilish nazariyasi geografiya o'qitish metodikasining metodologik asosini tashkil qiladi. Geografiya o'qitish metodikasi tadqiq qiladigan metodologik va nazariy muammolarga ilmiy tadqiqot metodlari va predmetlari, chet ellarda va O'zbekistonda geografiya ta'limi, geografiya va uning alohida kurslari bo'yicha o'qitish mazmuni, maqsadi va vazifalari, geografik bilimlarni egallashda ta'lim bilan tarbiyaning birligi, o'quvchilar geografik bilim va ko'nikma malakalari va dunyoqarashini shakllantirish, geografiya ta'limi jarayonining umumiy qonuniyatlari kiradi.

Geografiya o'qituvchisi o'z fanini sevishi va puxta bilishi, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini o'quvchilar ongiga singdira borishiga erishmog'i lozim. O'quvchilar o'z fanini yaxshi bilgan, darsni yuksak mahorat bilan o'tadigan tadbirkor o'qituvchilarga ixlos qo'yadilar. O'z fanini, ishini yaxshi bilmagan, kasbini sevmagan o'qituvchi hech qachon o'quvchilar e'tiborini qozona olmaydi.

Malakaviy bitiruv ishi kirish, uchta bob va xulosa qismlaridan iborat.

Malakaviy bitiruv ishining kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi, maqsadi, geografik ta'limotdagi amaliy ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Geografik ta'limda ko'rgazmali qurollardan foydalanish usullariga bag'ishlangan uslubiy adabiyotlar va qo'llanmalarni yetarlicha deb bo'lmaydi, bu esa tanlangan mavzuning dolzarbligini asoslab beradi.

Malakaviy bitiruv ishida bu mavzuni tanlashdan maqsad, o'quvchilarning geografiya kursi bo'yicha yuqori darajadgi o'zlashtirishlarini ta'minlashda shu fan o'qituvchilariga uslubiy yordam ko'rsatish.

Malakaviy bitiruv ishida tanlangan mavzuning amaliy ahamiyati shundaki, agar geografik ta'lim jarayoniga BMI da bayon qilingan ko'rgazmali qurollardan

foydalanish usullari tadbiq qilinsa o'quvchilarning shu fanni puxta o'zlashtirishlariga hech shubha qilmaymiz.

Tanlangan mavzuning ilmiy tadqiqot ob'yekti geografik ta'lim jarayoniga ko'rgazmali qurollardan foydalanish usullariga bag'ishlangan adabiyotlar va Jizzax tumanidagi № 11-son o'rta umumta'lim maktabining 5-9 sinf (asosan 9-sinf) lari.

Malakaviy bitiruv ishining 1-bobi maktab geografiya darslarida ko'rgazmali qurollardan foydalanishga bag'ishlangan. Bu bobda 5-9 sinflarda ko'rgazmali qurollardan foydalanishning mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Malakaviy bitiruv ishining 2-bobi, maktablarning 9-sinf Jahon mamlaktlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fani darslarida ko'rgazmali qurollardan mavzular bo'yicha foydalanishga bag'ishlangan. Bu bobda, 9-sinf Jahon mamlaktlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fani umumiy mavzulari, aniq region mavzulari bo'yicha ko'rgazmali qurollardan foydalanish usullari hamda fanni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga bag'ishlangan.

Malakaviy bitiruv ishining 3-bobi 9-sinf geografiya darslarida ko'rgazmalilik uslubining amaliy ahamiyatiga bag'ishlangan. Ushbu bobda bitiruvchi 1 soatlik dars bayoni haqida fikr yuritib "Hindiston" ning iqtisodiy geografik tavsifi mavzusini tanlagan va u darsning maqsadi, darsning jihozi, darsning rejasi (daqiqalarda bo'lingan holda), darsning tashkil etilishi (o'quvchilarni guruhlariga bo'lish) yangi mavzu prezentatsiyasi, (slydlar namoyishi), yangi mavzuni mustahkamlash, uyga vazifa bilanyakunlab, dars bayoni jarayonida o'zining muataqil fikrlarini o'quvchilar bilan o'rtoqlashishga muyassar bo'lgan, hamda shu dars orqali mavzu bo'yicha qo'llanilish lozim bo'lgan ko'rgazmali qurollardan foydalanishning yangi usullarini qo'llay olish imkoniyatini ko'rsata olish mumkinligi haqida o'z fikri bayon etilgan.

Malakaviy bitiruv ishining xulosa qismida shuni bajarish jarayonida olingan natijalar va ilmiy uslubiy xulosalar bayon qilingan.

I BOB. Maktab geografiya darslarida ko'rgazmali qurollardan foydalanish.

1.1 5-6 sinf geografiya darslarida ko'rgazmali qurollardan foydalanish.

Geografiyani kartasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Karta geografiya fani o'rganadigan barcha predmet va hodisalar haqida hikoya qila oladi, karta tez, aniq va lo'nda qilib hikoya qilishda kitobdan ham afzallik qilishi mumkin. Maktabda geografiya o'rganilar ekan, u bilan birga karta ham o'rganiladi. Geografiya sohasida olib boriladigan har qanday tadqiqot ishlari kartasiz bajarilmaydi. Karta geografiya darslarida bilim olishning asosiy manbaidir. Shunday ekan har bir o'quvchi kartaga qarab hali o'rganilmagan dengiz yoki daryo haqida gapira olsa, tog'larning balandligi va yo'nalishini aniqlay olsa, ma'lum bir joyning yer yuzasini yoki iqlimini ta'riflay olsa, bu o'quvchi kartani biladi, deyish mumkin.

Kartadan to'g'ri foydalana olishni o'rganish uchun geografiya o'qituvchisi o'quvchilarni har qaysi yangi karta bilan mana bunday tartibda tanishtirib borishi lozim: kartaning turi, undan qanday maqsadda foydalanish va uning shartli belgilarini tushuntirishi; o'quvchilar e'tiborini karta masshtabiga jalb etishi; kartadagi joyni ko'z bilan chamalab o'lchay olishlari uchun "o'lchov" sifatida xizmat qiladigan "mo'ljal" larni ko'rsatib o'tishi, karta proyeksiyasining xususiyatini ko'rsatib o'tishi lozim.

Bundan tashqari, o'qituvchi o'quvchilar etiborini gradus to'rining holati, meridian va parallellarining qanday o'tkazilganligiga, kenglik va uzunlikni belgilangan o'rniga, ekvator, bosh meridian, qutbiy va tropik doiralarga jalb

qilishi lozim. Globusdagi joy kartada boshqacha tasvirlanganligini ko'rsatib o'tishi kerak.

Karta bilan ishlash deyilganda eng avvalo geografiya o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarga kartani tushunish va o'qiy olishni o'rgatishdir. Kartani ma'nosi shuki, o'quvchilar undagi shartli belgilarga tushunishlari va shu shartli belgilar orqali ko'rsatilgan predmet va hodisalarning obrazlarini ko'z oldilariga keltira olishlari, kartaga qaraganda ular ongida daryolar, tog'tizmalari va muzliklarning manzaralari hosil bo'lishi kerak.

Tabiiy geografiya boshlang'ich fanida umumiy tushunchalar asosiy o'rinni egallaydi. Umumiy tushunchadagi fan va hodisalarning asosiy qismi maktab atrofidagi tabiatda uchraydi. Mazkur sinfda o'quvchilar tabiat ob'yektlari va hodisalarini kuzatishga oid muayyan amaliy ko'nikma va malakalar egallaydilar.


Tabiiy geografiya boshlang'ich fanidagi yangi bilim va ma'lumotlarni o'rganishda ko'proq suhbat bilan og'zaki bayon metodlaridan va turli mazmundagi o'quv qurollaridan foydalanish zarur.

Boshlang'ich fanning "Kirish" darsida o'qituvchi o'quvchilar bilan tanishgach, geografiya darsi uchun talab etiladigan o'quv qurollari va ulardan foydalanish yo'llarini tushuntiradi. Bu darsda tabiiy geografiya nimalarni o'rganishi haqida gap borar ekan, fanga o'quvchilar havasini orttirishga alohida e'tibor berish kerak. Ikkinchi dars hikoya usuli va suhbat metodidan foydalanib, turli qarashlar asosida, Ptolomey, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Zahiriddin Bobur, Kolumb, Magellan haqida ma'lumot beriladi, geografik kashfiyotlari va tadqiqotlari ob-havoni kuzatish turlari va usullari ham mahalliy sharoit misolida o'rgatiladi.


"Yerning globus va kartalarda tasvirlanishi", "Globus va geografik karta" mavzularida bir qancha amaliy ko'nikma va malakalar hosil qilish kerak bo'ladi. Binobarin, o'qituvchi o'quvchilarga biron yangi mavzu haqida so'zlar ekan, bunda ularning tabiatshunoslik fanlaridan olgan bilimini e'tiborga olmog'i lozim.

O'quvchilarda hosil qilinadigan dastlabki kartografik tushunchalar o'z joyi planini olishdan boshlanmog'i lozim. O'quvchilar o'z joyining planini chizishga kirishar ekanlar, bunda o'qituvchi rahbarlik qilishi, yo'l-yo'riq ko'rsatishi zarur.

I-Yevrosiyo materigida tarkib topgan iqlim mintaqalari.



Yevrosiyo materigida tarkib topgan iqlim mintaqalari



O'quvchilarda hosil qilinadigan dastlabki kartografik tushunchalar o'z joyi planini olishdan boshlanmog'i lozim. O'quvchilar o'z joyining planini chizishga kirishar ekanlar, bunda o'qituvchi rahbarlik qilishi, yo'l-yo'riq ko'rsatishi zarur.

“Yerning globus va kartalarda tasvirlanishi” degan mavzularni o'rganilayotganda kartografik va tasvirli qo'llanmalardan ko'proq foydalanish lozim. Masalan, yer yuzasini gorizontallar bilan tasvirlanishini tegishli metod yordamida tushuntirilishi, yerning shakli va kattaligini, gradus to'ri, meridian va parallellar, geografik kenglik va uzunliklarni avval globusda, keyin yarimsharlar, dunyo siyosiy yoki tabiiy kartalaridan o'rganish kerak.

Globus va kartalarda gorizont tomonlatini aniqlash, berilgan nuqtaning kenglik va uzunligini kartaga tushurish, kenglik va uzunlikni globus va kartalardan topish, gradus bilan oraliqni o'lchash tufayli karta bilan ishlash ko'nikmalari hosil bo'ladi.

“Litosfera” mavzusi o'quvchilarni qiziqtiradigan, ayni vaqtda ancha murakkab mavzudir. Bu mavzu maktab atrofida uchraydigan ob'yektlarni asli holatida o'rganish imkoniyati bor, biroq maktab atrofida uchramaydigan predmet va hodisalarni modellar, manzrali rasmlar, tasvirli o'quv qurollari yordamida o'rganishga to'g'ri keladi. Yerning ichki tuzilishi, uni tadqiq etish usullari, vulkanlar, tog'larning paydo bo'lishi kabi mavzularni badiiy so'z, jadval, chizmalar yordamida tushuntirish mumkin. Ammo rel'yef va yer po'stini tashkil etuvchi jinslarni amaliy jihatdan bilib olmoq uchun ekskursiya tashkil etish kerak. O'quvchilar ekskursiya paytida rel'yef shakllari va yer yuzasi qatlamlarining tuzulishini, undagi jinslarni o'z ko'zlari bilan ko'radilar.

“Gidrosfera” mavzusidagi dastlabki bilimlar okeanlar haqida bo’lib, bularni O’zbekiston maktablaridagi o’quvchilar bevosita, ko’ra va kuzata olmaydilar. Okean, okean tagi rel’yefi, suvining sho’rligi, dengiz oqimlari haqida so’zlaganda turli rasm, diafilm, kinofilm, sinf doskasiga chizib qo’yiladigan sxemalarni ko’rsatish kerak. Okean qismlari, qirg’oq chizig’i to’g’risidagi tushunchalarni geografiya maydonchasidagi sun’iy suv havzasidagi ko’rsatish mumkin, shuningdek maktab atrofidagi buloq, quduq, daryo, anhor, ariq, ko’l yoki suv omborlari misolida o’rganish ham maqsadga muvofiqdir.

“Atmosfera” mavzusi yuzasidan o’rganiladigan tushuncha hodisa va jarayonlar kuzatish yo’li bilan va zarur meteorologik asboblardan bilan ishlash tufayligina idrok etiladi. Shunday ekan, bu bo’limda kuzatish va tajriba metodlaridan ko’proq foydalanishga to’g’ri keladi.

Suv hamda quruqlikning notekis isishi, yog’inlarning hosil bo’lishi tajriba asosida, atmosfera hodisalarini kuzatish asosida o’rganiladi. Kuzatilgan ma’lumotlarni ishlab chiqishda turli mazmundagi iqlim diagrammalari, grafik, shamol gulini tuzish kabi amaliy ishlar qo’l keladi.

Meteorologiya stansiyasi va undagi asboblarning ishi, ob-havoni o’zidan aytish usullari bilan tanishtirish maqsadida o’quvchilarni meteorologiya stansiyasiga ekskursioniyaga olib boriladi.

O’qituvchi o’quvchilarga ob-havo holatini kuzatib borish vazifasini topshirar ekan, ahyon-ahyonda kuzatish natijalarini tekshirishi va ularning ishlariga tegishli baho qo’yib borishi kerak.

“Geografik qobiq” mavzusini o’rganishda tabiat zonalarini ifodalovchi manzarali rasmlar, diafilmlar va kinofilmlardan, ayrim o’simlik namunalardan, ya’ni gerbariyalardan keng foydalaniladi.

Bumavzuni o’rganishda ko’rgazmali qurollardan foydalanishning ahamiyati ayniqsa katta. Chunki boshqa zonalarning iqlimi, o’simlik va hayvonot dunyosini, ularning bir-biriga bo’lgan ta’sirini o’z o’lkasini bilan taqqolab o’rganiladi.

Tabiiy geografiya boshlang'ich kursida o'quvchilarga turli rasm va ko'rgazmalarni tilga kirituvchi savollar berib ularning tabiat hodisalarini qanchalik bilishlarini, masalan, vulkan otilishi jarayonini yoki buloqning hosil bo'lishini, tabiatda suvning aylanib yurushini tushunganliklarini bilib olish mumkin. Bu usulda so'rash o'quvchilar qiziqishini orttiradi. Bundan tashqari, o'quvchilar bilimini hisobga olishda ularning turli kuzatish asboblari bilan ishlay olishlarini ham e'tiborga olish zarur.



II-Dunyoning tabiiy xaritasi.

Mazkur fanda yangi bilimlarni o'zlashtirishda, V sinf tabiatshunoslik kursi, VI sinf tabiiy geografiya boshlang'ich fanida egallagan bilim va ko'nikmalarga tayaniladi.

Shuning bilan birga botanika, tarix, matematika kabi o'quv fanlaridan egallagan bilimlar ham muhim ahamiyatga egadir. O'quvchilarga o'simliklarning anatomiyasi va fiziologiyasi, muhim madaniy o'simliklar botanika kursida

ma'lum. Materiklarning o'simliklari o'rganilayotganda o'quvchilarning bu bilimlaridan foydalanish mumkin.

Tarix fanida o'quvchilar Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy, Gretsiya kabi qadimgi davlatlar bilan, shuningdek o'rta asrlarda Yevropa, Arabiston xalifalari, Vizantiya imperiyasi, XV-XVI asrlardagi geografik kashfiyolar va mustamlaka bosqinchilari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishganlar. Bu ma'lumotlardan materiklarning aholisi va siyosiy kartasini o'rganishda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Matematikadan o'quvchilar egallagan bilimlari raqamli materiallar bilan ishlashlarini osonlashtiradi va ayrim masalalarni ongli o'zlashtirish imkoniyatini beradi.

Materiklar geografiyasi fanida kartografik qo'llanmalar tabiiy geografiya boshlang'ich faniga nisbatan ko'proq foydalaniladi. Karta bilan ishlashga oid qator ko'nikmalar shakllantiriladi. Fanda o'quvchilarni turli kartalar (materiklarning umumgeografik kartasi, rel'efi kartasi, iqlim, geografik mintaqalar, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosining kartalari, shuningdek materik yirik o'lkalarining kartasi va siyosiy-ma'muriy kartalar) bilan tanishtirib, biron hududga geografik ta'rif berishga o'rgatiladi. Darslikda berilgan karta-sxema, turli xil va raqamli ma'lumotlardan bilim manbai sifatida foydalaniladi.

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi fani uchun yozuvsiz kartalar to'plami va har bir materikning alohida kartalari bilan nashr etiladi. Yozuvsiz kartalardan materikning geografik o'rni, qirg'oq chiziqlari, rel'efi va foydali qazilmalari, iqlim mintaqalari, daryo va ko'llari, tabiat zonalari va siyosiy kartasiga oid mavzu talab etgan ma'lumotlarni tushurish va bilimlarni mustahkamlash maqsadida foydalaniladi.

Materiklar va okeanlar geografiyasi fanini o'rganishda suhbat metodidan keng foydalanish kerak. O'quvchilarning kartalar bilan ishlashlari, o'quv qurollari va vositalarining boshqa turlaridan foydalanish suhbat metodining usullarini tatbiq etishni taqozo etadi. Materiklarga tabiiy geografik jihatidan ta'rif berish va

ob'yektlarni ta'riflashda og'zaki bayon metodining hikoya usulidan foydalanish ma'qul.

Materiklarning rel'efi o'rganilayotganda asosiy ma'lumotlarni tushuntirish usuli asosida yer yuzasining xususiyatlari va foydali qazilmalarini shularga tegishli kartalarni tahlil qilish asosida o'rganiladi.

Materiklar iqlimini kartalar va raqamli ma'lumotlar yordamida o'rganish yaxshinatija beradi. Tabiiy karta bilan iqlim kartasini bir-biriga solishtirish orqali iqlimga ta'sir etuvchi sabablarni aniqlash mumkin.

O'quv yilining oxirida ekskursiya o'tkaziladi. Ekskursiya davomida chunonchi mana bular: sinfda o'rganilgan materiallar va joydagi kuzatish o'zaro bog'lansa; ekskursiyada qo'yilgan vazifalar o'quvchilar tomonidan mustaqil va ijodiy tarzda hal etilsa; kuzatish asosida tegishli xulosalar chiqarilsa; kuzatilgan materiallar asosida tabiat komplekslaridagi o'zaro bog'liqlik qonuniyatlari ochilsa; insonning tabiatga ko'rsatgan ta'siriga yetarli e'tibor berilsa, nazarda tutilgan ta'lim-tarbiyaviy vazifalar muvaffaqiyatli hal etilishi mumkin. Ekskursiyani imkoniyati boricha o'simliklar ko'proq o'sgan joyda, o'tloq, tepalik, jarlik va suv yoqasida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Ekskursiya paytida o'quvchilar tuproqdan, tog' jinslaridan, o'simlik va hayvonlardan namunalar olishlari, yer yuzasi tuzilishini ta'riflashlari, suvning xususiyati bilan tanishishlari, ob-havoni kuzatishlari zarur.

III-Yevrosiyoning rel'ef shakllari.



tekislik

Yassi
tekisliklar

Tekis

Pasttekislik

**Tog'lar
va tog'
tizimlari**

Alp, Karpat, Pireney, Apennin, Bolqon, Kavkaz, Skandinaviya, Ural, Birranga, Verxoyansk, Cherskiy, Qozog'iston, Tyanshan, Oltoy, Sayan, Baykalorti Kunlun, Nanshan, Oltintog', Hindiqush, Himolay, Qoraqurum

**Yassi
tog'lik va
tog'liklar**

O`rta Sibir, Gobi, Ordos, Tibet, Kichik Osiyo, Armaniston, Eron, Beyshan, Norland, Meseta, Shotlandiya, Dinara

**Tog'orali
g'i
botiqlari**

Aragon, Andalusiya, Padana, Akvitanija, Parij, O`rta Dunay, Sandomej, Transilvaniya, Frakiya, Kolxida, Kura, Araks, Farg'ona, Zarafshon, G'arbiy Tojikiston, Oloy, Issiqko'l, Talas, Chuv, Ili, Zaysan, Kuznetsk, Minusinsk, Yenisey-Chulim, Tuva, Barguzin, Yuqori Zeya, Zeya-Bureya, O`rta Amur, Sayfun-Xanka, Turfon, Tarim, Saydam, Sichuan, Katta Ko'llar.

**Tekislik
lar va
pasttekis**

SHimoliy Evropa, O`rta Evropa, SHarqiy Yevropa, G'arbiy Sibir, SHimoliy Sibir, Buyuk Xitoy Turon Mesonotamiya

Cho`llar

Gobi, Taklamakon, Alashany,
Qizilqum, Qoraqum, Mo`yinqum,
Suriya, Rub-al-Holi, Katta Nefud,
Kichik Nefud, Tar, Thal, Dashti-Lut,
Dashti-Kabir

1.2 7-8 sinf geografiya darslarida ko'rgazmali qurollardan foydalanish.

Har bir sinf uchun alohida darsliklar chiqarilagan ya'ni hozirgi kunda geografiya fani uchun ham 4-9 sinfgacha darsliklar bilan o'quvchilar to'liq ta'minlangan. Darsning barcha bosqichlarida darslik bilan muntazam ishlab borish- mustahkam bilim,ko'nikma berishdagi, o'quvchilarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirishdagi asosiy yo'nalishdir.O'quvchilarni kitobdan foydalanishga o'rgatish maktab geografiyasi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biridir. Darslik o'quvchilar uchun asosiy qo'llanma, ular oladigan bilimlarning eng muhim manbaidir.

Shuning uchun darslik bilan ishlash eng muhim pedagogik masaladir. O'quvchilar darslik bilan o'qituvchi rahbarligida ishlaydilar. O'qituvchi o'quvchilarni darslik bilan o'quv yilining boshida birinchi darsda tanishtiradi.

Darslikdagi topshiriqlarni bajarishga alohida e'tibor berish zarur. O'quvchilarning mustaqilligini orttirish uchun o'qituvchi topshiriqlarni o'qitmay, "birinchi topshiriq" ga yoki "uchinchi topshiriq"ga javob talab qilishi mumkin. Buning uchun o'quvchilar har bir topshiriq mazmunini darslikdan o'qib olib, javob tayyorlaydilar.

O'qituvchi o'quvchilarni darslikda berilgan raqamli ma'lumotlar bilan ishlashga o'rgatishi lozim. Bu ma'lumotlardan geografik ob'yektlar, o'lkalar va tabiiy geografik rayonlarni ta'riflashda foydalaniladi.

Yangi mavzuni darslikdan mustaqil o'rganish ham mumkin. Tanlangan mavzuni mustaqil o'rganishdan avval o'qituvchi o'zining kirish so'zida dars mavzusini mazmuni bilan qisqacha tanishtiradi va tegishli mavzuni mustaqil o'rganish uchun o'quvchilarga topshiradi. Tanlangan mavzu aniq, o'quvchilarga tushunarli bo'lishi kerak. O'qituvchi o'quvchilarning javob tayyorlashi lozim bo'lgan savollarni sinf doskasiga yozib qo'yadi. O'qituvchi o'quvchilarning javobini eshitadi va qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldiradi, oxirida o'qituvchi javoblarni umumlashtirib tegishli xulosalar chiqaradi.

O'zbekiston tabiiy geografiyasining asosiy vazifasi-o'quvchilarga o'z respublikasining tabiati haqida tasvvur va tushunchalar berish, respublika tabiatining o'ziga xos xususiyatlari, tabiiy boyliklari va ulardan xalq xo'jaligida foydalanish imkoniyatlari haqida o'quvchilarga bilim berishdan iborat.

O'zbekiston tabiiy geografiyasi fanida geografik qonuniyatlar oldingi fanlarga nisbatan ancha chuqurroq o'rganiladi. Binobarin, bunda xilma-xil metodlardan, ko'rgazmali qurollar, usullardan va vositalardan foydalanish kerak. Darslarda tatbiq etiladigan metodlar va usullar, o'rganiladigan mavzuning mazmuni, o'quvchilarning bilim doirasi va maktabdagi o'quv qurollariga qarab belgilanadi.

"Kirish" mavzusida asosiy e'tibor O'zbekistonning tabiiy sharoiti va boyliklarini o'rganishning ahamiyatini yoritishga qaratilmog'i lozim. Bu dars suhbat metodi va hikoya usulida o'rganiladi.

“O‘zbekistonning geografik o‘rni va chegaralari” mavzusi o‘quvchilarning ilgari olgan umumiy tushunchalariga asoslanib kartalarda olib boriladigan mustaqil ishlar asosida suhbat yo‘li bilan o‘rganiladi.

“Kartalar va ular bilan ishlash” mavzusi o‘rganilar ekan, o‘quvchilar topografik kartaga oid bilimlarni yanada rivijlantirish maqsadida yirik masshtabli kartalarni kichik masshtabli kartalar bilan solishtirib, ulardagi turli joylar va hodisalarning masshtab asosida tasvirlanishini aniqlaydilar, kartalarda masofani o‘lchash usuliga oid amaliy ishlar bajaradilar. Kartaga qarab gorizontallar bilan yer yuzasini tasvirlash va profil chizish ishlarini bajaradilar.

“O‘zbekiston hududining rel‘efi, geologik tuzulishi va foydali qazilmalari” mavzusi ancha murakkab. Bunda o‘quvchilar ilgari noma‘lum bo‘lgan yangi masalalar bilan shug‘ullanadilar. O‘qituvchi mavzularni og‘zaki bayon etadi va ular haqida sinf doskasiga tegishli jadval sxemalar chizadi, tektonik karta, maketlardan ko‘rsatib boradi. Namunalarga qarab, tog‘ jinslari aniqlanadi. O‘zbekistonning tektonik kartasiga zilzila bo‘lib turadigan joylarni yozuvsiz xaritaga tushurishi aytiladi.

“O‘zbekistonni o‘rab turgan dengizlar” mavzusi O‘rta Osiyoning umumiy tabiiy kartasidan o‘rganiladi.

“O‘zbekiston hududining iqlim sharoiti” mavzusi o‘rganilayotganda kuzatilgan ob-havo ma‘lumotlariga suyanib ish ko‘rmoq kerak.

O‘zbekiston iqlimiga umumiy ta‘rif berish iqlimni hosil qiluvchi omillarni o‘rganishdan boshlanadi. Atmosfera sirkulyatsiyasiga taalluqli ma‘lumotlar aniq misollar asosida o‘zlashtirilishi lozim. Mazkur mavzuda o‘quvchilar iqlim kartasi va diagrammalarini tahlil qiladilar. Ko‘rgazmali qurollardan o‘quvchilar kartaga qarab, bug‘lanish miqdori, turli joylardagi namlanish koeffitsientini aniqlash mashqlarini bajaradilar.

“O‘zbekistonning ichki suvlari” mavzusini puxta va ongli o‘zlashtirish uchun o‘quvchilar o‘zlari yashab turgan joydagi daryo yoki anhor suvlarini kuzatib borishlari lozim. Ichki suvlarini o‘rganishda O‘zbekistonning yirik daryolarining

qaysi okean havzalariga tegishli ekanligini, sug'orish kanallarini, suv omborlarini kartadan yoki globusdan aniqlashlari kerak.

“Tuoroqlar.O'zbekistonning tabiat zonalari ” mavzusi tabiat zonalarini yer shari bo'yicha taqsimlanishini takrorlashdan boshlash kerak. Bu mavzuda tuproq ularning hosil bo'lish va rivojlanish sharoiti, ayrim tuproq tiplari haqidagi ma'lumotlar chuqurlashtiriladi. Zonalardagi o'simliklarning xususiyati va ularning ahamiyatiga to'xtab o'tiladi.

O'zbekiston tabiiy geografiyasini umumiy tarzda o'rganishda badiiy va tas'viriy qo'llanmalardan keng foydalaniladi. Ko'rsatmalilikning turli vositalari-tuproq namunalari,gerbariylar, turli rasmlar, fotorasmlar, filmlar va boshqa turdagi ko'rgazmali qurollardan foydalanish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston tabiiy geografiyasi fanini o'rganishda quidagi:O'zbekistonning tabiiy, siyosiy-ma'muriy, geologik, tektonik, iqlim, tuproq, o'simlik zonalari devoriy kartalaridan, O'zbekistonning tabiiy geografik hududlari umumgeografik kartalaridan, O'zbekistonga oid turli mazmundagi kartalardan hamda topografik kartalardan foydalaniladi.Shuningdek, o'quvchilar “O'zbekiston tabiiy geografiyasi atlas ”, darslikka ilova qilingan kartalar hamda yozuvsiz kartalardan foydalanadilar.Shular bilan birga mavzularga oid turli xil slaydlar, kinolavha jadval, foydali qazilma namunalari, tog' jinsi namunalari kabi o'quv qo'llanmalaridan foydalansa ijobiy natija berar edi.

Yangi mavzularni o'rganishda o'qituvchining tushuntirishi katta ahamiyatga ega. Shuning bilan birga o'quvchilar faoliyatini faollashtirish uchun imkoniyatlar yaratib borish taqozo etiladi. O'quvchilar faolligini oshirish uchun ko'proq suhbat metodi qo'l keladi.

IV-O'rta Osiyo o'lkasining tabiiy xususiyatlari.

O'rta Osiyo juda katta ichki o'kadir

O'rta Osiyo hududi berk havzadan, ya'ni oqimsiz o'lkadan” iborat

O'rta Osiyoning yana muhim hususiyatlaridan biri uning yer yuzasining o'ziga xosligidir

O'lka o'ziga xos gorizontaal tabiiy zonalarning mavjudligi va ularga mos keladigan balandligi mintaqalarining rivojlanganligi bilan ajralib turadi

O'lka-tektonik faol va kuchli zilzila rayoni. Qadimgi tog'larning yosharyotganligi, yosh tog'larning ko'tarilayotganligi bilan ajralib turadi

O'rta Osiyo – keskin tabiiy tafovutlar o'lkasi. Hududning tarkib topishidan tortib, o'simliklar va hayvonot dunyosigacha tabiatning barcha komponentlari o'lkaning turli qismlarida keskin farq qiladi

O'rta Osiyo faqat gidrografik berk o'lka bo'lib qolmasdan ekologik sharoiti jihatdan ham berk o'lkadir. Bu hususiyat o'lkada xo'jalikning turli sohalarini rivojlantirishda albatta diqqat markazida

O'rta Osiyo jahon fani, madaniyati ma'naviyatini rivojlantirishda katta hissa qo'shgan juda ko'p buyuk allomalar vatanidir

Suhbat jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning tabiiy geografiya kurslarida va boshqa o'quv fanlaridan olgan bilimlariga tayanadi.

Fanning birinchi bo'limi-O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaning asoslari bo'limida iqtisodiy kartalar, darslikdagi karta-sxemalar, statistik ma'lumotlar bilan ish olib boradi. Turli mazmundagi kartalar, sxemalar, diagramma va boshqa statistik jadvallardan o'qituvchi suhbat metodi jarayonida va o'quvchilarning mustaqil ishlarida foydalanadi.

O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasida quyidagi: O'zbekistonning mineral resurslari, yoqilg'i sanoati, elektroenergiya, mashinasozlik, ximiya sanoati, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, dehqonchilik, chorvachilik va transport kartalaridan, shuningdek, mavzular bo'yicha turli mazmundagi slayd va o'quv kinofilmlardan foydalanadi.

Ikkinchi bo'lim- O'zbekistonning yirik iqtisodiy geografik rayonlari bo'limidan boshlashdan avval, o'quvchilarda iqtisodiy rayon haqida tushuncha hosil qilish lozim, chunki o'quvchilarda bu tushunchasiz O'zbekistonning iqtisodiy rayonlarining iqtisodiy geografiyasini tushunib yetishlari bir muncha qiyin.

Iqtisodiy rayonlarni o'rganishda uning ixtisoslanish xususiyatini o'rganishda suhbat metodi keng qo'llaniladi. Ayni vaqtda iqtisodiy rayonning iqtisodiy geografik o'rni, tabiiy resurslari, aholisi, xo'jaligining ayrim tarmoqlari shaharlariga ta'rif berishda qiyosiy usuldan foydalanish qo'l keladi. Iqtisodiy rayonlarni bir-biri bilan qiyoslab o'rganish ilgari o'rganilgan mavzularni takrorlash va mustahkamlash imkoniyatini beradi, shuningdek yangi mavzular puxta o'zlashtiriladi.


O'zbekistonni iqtisodiy rayonlarini o'rganish o'quvchilarda iqtisodiy kartalar, sxemalar va jadvallar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini beradi.

Dastlabki iqtisodiy rayonlarni o'rganishda, o'qituvchi, iqtisodiy geografik ta'rif berish rejani geografik o'rni, tabiiy sharoiti, aholisi va mehnat resurslari, xo'jalik tarmoqlari va shaharlari bilan o'quvchilarni xabardor qilib borishi maqsadga muvofiqdir.



O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi fanida nazarda tutilgan muayyan amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun iqtisodiy kartalar bilan butun fan davomida mustaqil va amaliy ishlar bajarib boriladi. O'quvchilar O'zbekiston xalq xo'jaligining umumiy bo'limida, xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlariga qisqacha iqtisodiy geografik ta'rif boradilar.

Kartalar asosida iqtisodiy geografik tavsif berish dastlab oddiy tarzda (masalan, neft yoki tabiiy gaz qazib chiqarish geografiyasi, paxta yetishtirish geografiyasiga tavsif berish) olib boriladi. Iqtisodiy rayon yoki respublikalar aholisi va xo'jaligiga tavsif berish uchun o'quvchilar kompleks iqtisodiy kartalardan sanoat markazlarining joylanishi va sanoat strukturalariga, qishloq xo'jalik rayonlari, transport yo'llarini aniqlay olishlari talab etiladi. Ba'zan tabiiy karta bilan iqtisodiy kartalar solishtirilib tabiiy va iqtisodiy geografik sharoitlarni hisobga olib qishloq xo'jaligi ixtisosini asoslash talab etilishi mumkin.

Fan mavzularini o'rganish jarayonida o'quvchilar yozuvsiz kartalar bilan ishlab, turli karta-sxemalar tuzib boradi



V-Landshaftning asosiy tarkibiy qismlari.



1.3 Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fani darslarida ko'rgazmali qurollardan foydalanish.

Geografiya darslarida geografik dalil va hodisalar bilan bevosita tanishish uchun kuzatish talab etiladi. Kuzatish tufayli o'quvchilar tabiatdagi turli xil jarayonlarni, inson xo'jalik faoliyatini o'rganadilar, geografik hodisalar o'rtasidagi sabab- oqibatlarini bilib oladilar.

Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fanini o'rganishda "Mteriklar va okeanlar geografiyasi" va "Yangi tarix" fanlaridan olingan bilimlarga tayaniladi.

Fan mavzularini o'rganishda mamlakatlarga iqtisodiy geografik ta'rif berish sxemasi ularning ixtisoslanishiga qarab bir oz o'zgarishi ham mumkin. Chunonchi, mamlakatlarda "sanoat"ning salmog'i "qishloq xo'jaligi" ning salmog'i "sanoat"dan yuqori bo'lgangi uchun dastlab "qishloq xo'jaligi" o'rganiladi.

Rivojlanayotgan malakatlar o'rganilayotgan paytda, dastlab har bir guruh mamlakatlarga umumiy ta'rif beriladi. Ta'rif, mazkur guruhga tegishli barcha mamlakatlarga xos bo'lgan aholi faoliyati va iqtisodiy geografiyasi, ular uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy va iqtisodiy masalalar, shuningdek mamlakatlar doirasidagi asosiy tafovutlarni o'z ichiga oladi.

Rivojlangan mamlakatlarga umumiy ta'rif berilganda aholisi (tabiiy o'sish darajasining pastligi, urbanizatsiya va sinfiy kurashning kuchliligi) va xo'jaligi (sanoatning qishloq xo'jaligiga nisbatan ustunligi, transport va tashqi iqtisodiy aloqalarning yuqori darajada rivojlanganligi, ayrim mamlakat va rayonlarning notekus rivojlanganligi) ning rivojlanish xususiyatlari ko'rdatiladi.

Har bir guruhdagi mamlakatlarning umumiy ta'rifi kirish darslari tarzida, ma'ruza usulida o'rganiladi. Mamlaktlarni o'rganishda o'quvchilar faoliyatini

faollashtirish imkoniyatlari vujudga keladi. Har bir mamlakat iqtisodiy geografiyasi o'rganilayotganda, o'quvchilarning "Jahonning umumiy iqtisodiy geografik tavsif"dan olgan bilimlariga tayaniladi. O'quvchilar faoliyatini faollashtirishda tarix, 6-sinf materklar va okeanlar tabiiy geografiyasi materiallaridan foydalanishning ahamiyati katta.

Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fanini o'rganishda vaqtli matbuot materiallari va adabiyotlardan foydalanish joizdir, binobarin o'quvchilar gazeta va jurnallarni muntazam o'qib borishga, sinf materiallarini hozirgi voqealar bilan bog'lab borishga o'rganadilar.

Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fanini o'rganish jarayonida o'quvchilar faolligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan muammoli ta'limga ham e'tibor berib borish lozim, shu maqsadda, "Yaponiya" mavzusini o'rganayotganda o'quvchilarga "Nima uchun urushdan keyingi yillarda Yaponiya iqtisodiy jihatdan tez rivojlana boshladi?" degan muammoli savol berish mumkin.

Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fani materiallarini o'rganishda ko'pchilik masalalarni hal etish uchun bilim manbai bo'lib xizmat qiladigan, turli mazmundagi kartalar suhbat va mustaqil ishlarni taskil etishda katta imkoniyatlar vujudga keltiradi.

Xususan, mamlakatlarning iqtisodiy geografik o'rni, aholisi, sanoati, qishloq xo'jaligi va transportining joylanishini kartalar bilan bog'lab, suhbat asosida o'rganish yaxshi natija beradi. Shuningdek, statistik ma'lumotlar bilan ishlashda suhbat metodi juda qo'l keladi.

Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fani mavzularini o'rganishda iqtisodiy kartalar bilan birga boshqa ko'rgazmali qurollardan, jumladan slydlar, texnik vositalardan foydalanishga to'g'ri keladi.

O'quvchilar fanni to'liq o'zlashtirishlari uchun, qo'shimcha bilimlarini oshirish uchun darslik bilan ishlashdan tashqari, o'quvchilarni qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashga qiziqtirish, undan zarur geografik ma'lumotlarni topa olishga o'rgatish lozim. O'quvchilarni qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashga qiziqtirish uchun o'qituvchi ilmiy-ommabop va badiiy adabiyotlardan qiziq

ma'lumotlar, ajoyib o'simliklar yoki hayvonlar haqida, aholining urf-odatlarini haqida so'zlab berishi kerak.

Qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashda ko'proq o'z respublikasining tabiati va aholisining mehnat faoliyatini yorituvchi ilmiy-ommabop va badiiy adabiyotlarni tavsiya etish alohida ahamiyatga egadir. Qo'shimcha adabiyot bilan ishlashda ko'proq geografiya fanining asoslarini o'rganish va o'quvchilarning bilim doiralarini kengaytirishda katta ahamiyatga ega.

O'quvchilarning o'zlari o'qituvchi bilan hamkorlikda quyidagi ko'rgazmali qurollarni yasashlari mumkin.

a) O'z respublikasining tabiiy sharoitini aks ettiruvchi ko'rgazma.

b) Tog' jinslari va foydali qazilmalar gerbariylardan namunalari.

c) Iqlim diagrammalari va grafiklari, ob-havo kalendari, yog'inlarning taqsimlanishi, daryo va ko'llar, o'simliklar karta-sxemasi.

d) Joyda kuzatish va o'lchash ishlari uchun ishlatiladigan asboblari (planshet, burchak o'lchagich, niveler, flyuger, yog'in o'lchagich, qor qalinligini o'lchagich) va har xil qo'llanmalarni ko'rsatish va saqlash uchun texnika asboblari.

e) Tabiiy-geografik jarayonlarni ko'rsatadigan qo'llanmalar (tog' jinslarining nurashi, musson va passatlarning hosil bo'lishi va hokazo).

f) Rel'ef shakllarining maketlari, ayrim mamlakatlarning tabiatini tasvirlovchi rasmlar, bulardan tashqari geografiya faniga hissa qo'shgan geograf-olimlarning faoliyatini aks ettiruvchi rasmlar.

g) Dunyodagi kanallar, suv omborlarini ko'rsatuvchi karta-sxema va har xil ko'rsatgichlarni ham yasash mumkin.

O'quv harakatlari o'qituvchi va o'quvchilar bilan mulohaza qilish va xulosa chiqarish bunday dasturlarning muhim qismi hisoblanadi. Ta'limda texnologik yondoshuvning geografiya o'qitishga ham kirib kelishi an'anaviy metodlar bilan qiyoslash imkoniyatlarini yaratadi. Texnologik yondoshuv muhim

xususiyati shundaki, bu yondoshuv ta'limda ko'proq reproduktiv metodni qo'llashni talab qiladi. Bu metod o'quvchini asosan mustaqil ishlashga va bilimlarni mustaqil egallashga undaydi. Geografiya ta'limi jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiq etish ta'lim jarayonining o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Ta'lim sohasida yuz bergan o'zgarishlar qatorida pedagogik jarayonning mazmun mohiyati metodlar ayniqsa keskin o'zgardi. Yangi pedagogik texnologiyalar amalga tadbiq qilina boshladi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalar hozirgi davr ta'lim jarayonini yangi sifat ko'rsatkichlariga olib chiqishi mumkin bo'lgan metodlar tizimiga aylandi. Jahonda rivojlangan davlatlarning tajribasi ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda o'quvchi – yoshlarning bilim olishiga bo'lgan qiziqishi va ehtiyojlarini qondiribgina qolmasdan, yuqori malakali mutaxassislar etishtirib berish vazifalarini ham hal etmoqda.

SHunday ekan, maktablarda o'quvchilarga bilim berish ko'nikma va malakalarni hosil qilishda pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim jarayonini yo'lga qo'yish jahon andozalariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlashga ulkan hissa qo'shadi.

SHu asnoda yangi pedagogik texnologiyalar asosida test reyting tizimi keng qo'llanila boshlandi. Ularning ta'siri ostida ta'lim – tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari kengaydi. Aniq hisob – kitoblar, o'lchamlar, rejalar, dasturlar, xilma – xil shakllar asosida texnologik yondoshuv, shuningdek, darslarni noan'anaviy usullardan foydalangan holda o'tish joriy etildi.

Bugungi kunda noan'anaviy dars usullari 3 asosiy turga bo'linadi:

- 1.Mutaxassis chaqirish.
- 2.Muammoli dars o'tish.
- 3.Boshqa an'anaviy dars o'tish.


Noan'anaviy ta'limda mutaxassis chaqirish dars usullaridan foydalanishning samaradorligi shundaki, bunda darsni o'qituvchi emas, balki o'rganilayotgan mavzuga oid mutaxassis o'tadi. Bu har bir ta'lim muassasasida dasturga muvofiq shartnoma asosida mutaxassislarni chaqirish taklif etish orqali

amalga oshiriladi. Bunday darslar o'quvchilarning shu mavzu yuzasidan aniq va to'liq ma'lumot olishlariga, shuningdek, kasb tanlashlariga katta ilmiy – amaliy yordam beradi.

Bundan tashqari noan'anaviy ta'limda muammoli dars usullari ham katta o'rin egallaydi. Bunda mavzuni yoritishda o'qituvchi tomonidan mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda yuqori va metodik saviyaga ega bo'lgan bir qancha muammoli savollar qo'yilib, muammoli vaziyatlar tizimi yaratiladi, o'quvchilar esa ushbu muammoni tahlil qilib, muammoni hal qilish usullarni ilmiy – mantiqiy nuqtai nazardan asoslangan turli taxminlarni ilgari surib, bahs – munozara olib boradilar, so'ngra barchaning fikri, taxminlari tekshirilib, jamlanib, muammoning echimi topiladi va yakuniy xulosa chiqariladi. Bunday darslar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga topqirlikka ijodiy va ijtimoiy faollikka o'rgatadi.

Boshqa noan'anaviy usullar esa turli mazmun va shakllardan iborat bo'lgan usullarni o'z ichiga oladi. Bu o'quvchilarni faqat bir xil qolipda emas, balki xilma – xil shakllar asosida bilim olishlarini belgilaydi. Bunday darslardan foydalanish, avvalo, o'quvchilarni ijodkorlikka, faqat darslik bilan emas, balki qo'shimcha adabiyotlar va matbuot materiallari bilan ham ishlashga, qiziqarli ma'lumotlar to'plashga, geografik dunyoqarashni kengaytirishga undaydi.

2-ilova.



VI-URBANIZATSIYANING RIVOJLANISHINING ASOSIY BOSQICHLARI VA ASPEKTLARI

Urbanizatsiya bosqichlari	Urbanizatsiya aspektlari		
	Miqdoriy (shahar aholisi)	sifatiy	Hududiy
III. Yetilgan urbanizatsiya	$\frac{3}{4}$ va undan ko'p.	7. Zamonaviy urbanizatsiya. 6. Rurbanizatsiya. 5. Suburbanizatsiya	SHahar aholi punktlarining shakllangan sistemasi.
II. Rivojlangan urbanizatsiya	$\frac{1}{2}$ va $\frac{3}{4}$ gacha	4. Shahar aglomeratsiyalari va megalopolislar. 3. Yirik shaharlar sonining tez o'sishi.	SHahar aholi punktlarining shakllangan to'ri.
I. Shakllanayotgan urbanizatsiya.	$\frac{1}{2}$ gacha.	2. Yirik shaharlarning o'sishi. 1. Shaharlar sonining o'sib borishi va rivojlanishi.	Yirik shahar etakchiligi dagi alohida shaharlarning mavjudligi.

II BOB. Maktablarning 9-sinf Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fani darslarida ko'rgazmali qurollardan mavzular bo'yicha foydalanish.

“Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” geografik tadqiqotlarini tarixiy – ijtimoiy tahlillar asosida olib boradi. Bu borada, u albatta, hozirgi davrda ishlab chiqarishni joylashtirish masalalarida tarixiy ma'lumotlarga (ayniqsa, sanoat va qishloq xo'jaligi mintaqalari, transport yo'llari, aholini joylashtirish, shaharlar, mehnatga layoqatli aholi va boshqalarga nisbatan) tayanadi, rivojlanish darajasini, dinamikasini aniqlash maqsadida ishlab chiqarishni solishtiradi, baholaydi va insonning tabiiy muhitga ta'sirini tahlil qiladi.

Ayrim jihatlarni o'rganish uchun “Iqtisodiy geografiya” 2 qismga:

- “Umumiy iqtisodiy geografiya” va
- “Rayonlar iqtisodiy geografiyasi”ga bo'linadi.

2.1 9-sinf Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fani umumiy mavzulari bo'yicha ko'rgazmali qurollardan foydalanish usullari.

“Umumiy iqtisodiy geografiya” qismida tizimning umumiy masalalarini, mamlakatlarning xo'jalik geografiyasi va asosiy tarmoqlar geografiyasini o'rganiladi.

“Rayonlar iqtisodiy geografiyasi” qismida esa, tegishli mamlakatning ayrim hududlari xo'jaligi va iqtisodiy rayonlari o'rganiladi. Mamlakatlarni kompleks (majmual) o'rganishda ikkala qism ham bir-birini to'ldiradi. Ayni vaqtda mamlakatlar xo'jaligi va bu xo'jalik tarmoqlarini tadqiqot qilishdagi umumiy masalalarini o'rganish tegishli mamlakatning ayrim hududlari va iqtisodiy rayonlari xo'jaligini o'rganish uchun juda zarur hisoblanadi.

“Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” ning quyidagi ilmiy kontsepsiyalari mavjud:

- Iqtisodiy rivojlantirish kontsepsiyasi -muayyan mamlakat, iqtisodiy rayonlarning murakkab tizimi bo'lib, shakllanishi qonuniy tarzda shakllanadi;
- Hududiy ishlab chiqarish majmualari kontsepsiyasi – ishlab chiqarish korxonalarini va aholi yashash joylarini chegaralangan hudud yoxud iqtisodiy rayon yoki kichik rayon hududida o'zaro uyg'unlashuvi;
- Energiya ishlab chiqarish sikllari kontsepsiyasi – rayon barpo etuvchi qonuniyatlar sikli.

Ushbu kontsepsiyalar iqtisodiy geografik izlanishlarda o'z aksini topadi.

“Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” ijtimoiy-iqtisodiy, hududiy tizimlarni o'rganishda:

1. Dasturiy-maqсадli;
2. Tizimning tahlili;
3. Balans “muvozanat”;
4. Kartografik;
5. Iqtisodiy matematik modellashtirish;
6. Qiyosiy geografik;
7. Iqtisodiy geografik basqoratlash usullaridan foydalaniladi.

“Iqtisodiy geografiya” ijtimoiy-iqtisodiy, hududiy tizimlarni o'rganishda bulardan tashqari o'zi uzviy aloqada bo'lgan boshqa fanlarning usullari va xulosalaridan ham keng foydalaniladi.

“Tabiiy geografiya” bilan uzviy hamkorlikda va aniq tarmoqlar iqtisodiyoti ma'lumotlariga tayangan holda hududlar tabiiy sharoitiga iqtisodiy baho berish va undan samarali foydalanish yo'llarini aniqlash. “Iqtisodiy geografiya” ning asosiy vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Jahonning umumiy ta'rifi deb nomlangan 1-qism o'z ichiga “Jahonning hozirgi siyosiy xaritasi”, “Xalqaro munosabatlarning dunyo xaritasiga ta'siri”, “Jahon mamlakatlarining davlat tuzumi”, “Jahon tabiiy resurslari geografiyasi va atrof-muhitning ifloslanishi”, “Jahon aholisi geografiyasi”, “Fan-texnika inqilobi va jahon xo'jaligi”, “Jahon xo'jaligi tarmoqlar geografiyasi” mavzularini oladi.

Bu mavzularni o'rganishda egallagan nazariy materiallar, jahonning regional qismini o'rganishda qo'llaniladi va yanada oydinlashadi. Masalan, "Fan-texnika inqilobi va jahon xo'jaligi" mavzusida o'quvchilar hozirgi zamon ishlab chiqarishdagi inqilobiy yo'nalishlar va to'ntarishlar mohiyati bilan tanishadilar. Bu bilimlar jahon mamlakatlarini o'rganishda ancha mustahkamlanadi. "Fan-texnika inqilobi" mavzusida FTI ning o'ziga xos belgilari, texnika va texnologiya, boshqaruv, uning xalqaro geografik mehnat taqsimoti, xalqaro ixtisoslashish tarmoqlari bilan aloqadorligi masalalari atroflicha o'rganiladi. Aniqsa, FTI ning jahon xo'jaligiga ta'siri quidagi yo'nalishlarda ko'rib chiqiladi.

1. FTI ning jahon xo'jaligining asosiy bo'laklariga ta'siri.
2. FTI ning moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari tuzilishiga ta'siri.
3. FTI ning xo'jalikning hududiy tuzilishiga ta'siri.
4. FTI ning joylashtirish omillariga ta'siri.
5. FTI ning alohida rivojlangan va rivojlanayotgan

mamlakatlardagi o'rni va roli.

"Dunyoning siyosiy xaritasi" ni o'rganish mavzusining asosiy maqsadi o'quvchilarning jahon siyosiy xaritasining tashkil topishi, mamlakatlar guruhleri, hozirgi miqdori, iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar, xalqaro munosabatlar, dunyo siyosiy xaritasidagi o'zgarishlardavrlari, davlatlar, davlat tuzumlari, boshqaruv shakllari, ma'muriy-hududiy tuzulishi kabilar bilan tanishtirish.

Dunyoning siyosiy xaritasini o'rganish jarayonida o'quvchilarga quyidagi jadvallarni mustaqil to'ldirishga yordam berish mumkin.

1. Maydoni 3 mln. kv. km. dan katta bo'lgan davlatlarni quyidagi jadvalda aks ettiring:

I-jadval.

Mamlakat nomi	Poytaxti	Qaysi qit'ada joylashgan	Davlat tuzumi

2. Iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarni xaritadan ko'rsating.
3. Ichki yalpi mahsuloti (IYAM) aholi jon boshiga 10 ming dollardan 30 ming dollargacha bo'lgan mamlakatlarni quyidagi jadvalda aks ettiring.

II-jadval.

Mamlakat nomi	Poytaxti	Aholi jon boshiga, IYAM
---------------	----------	----------------------------

4. Quyidagi jadvalni to'ldiring. Unga ushbu davlat tiplariga mos keladigan davlatlardan 10 tadan yozing.

III-jadval.

Monarxiya		Respublika	
Konstitutsion monarxiya	Mutlaq monarxiya	Unitar davlat	Federal davlat

Dunyo siyosiy xaritasidagi o'zgarishlarni o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning mustqil ishlari orqali bajarish samarali natijalar berishi tajribalarda isbotlangan. Siyosiy xaritadagi o'zgarishlarni tahlil qilish orqali ular turli tipdagi mamlakatlarni ajratadilar va ularning har biriga qisqacha tavsif beradilar.

Ayniqsa, siyosiy xaritadagi o'zgarishlarni quyidagi bosqichlarga (1-jahon urushidan keyin, 2- jahon urushidan keyin va 1990-1991-yillardan keyingi) bo'lib o'rganish ko'zlangan maqsadga erishishda katta ahamiyatga ega. Bu mavzu o'quvchlarni dunyoda bo'layotgan xalqaro voqealar bilan ham tanishtirish imkoniyatini beradi.

“Jahon tabiat resurslari geografiyasi va atrof-muhitning ifloslanishi” mavzusi o'quvchilarga ushbu mavzu haqida umumiy bilimlar beradi. O'quvchilar mavzuni o'rganish jarayonida jamiyat tabiatning o'zaro aloqasi, jahon tabiat resurslari, regionlarning resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi, atrof-muhitning ifloslanishi kabi bilimlar tizimini egallaydilar. Mavzuning asosiy maqsadlaridan biri,

o'quvchilarni tabiiy resurslar tiplari va atrof-muhitni antropogen ifloslanishi, ekologik siyosat, tabiatdan foydalanish masalalarini hal etish yo'llari kabi bilimlarni egallaydilar. Mavzuning asosiy maqsadlaridan biri, o'quvchilarni tabiiy resurslar tiplari va atrof-muhitni ifloslash manbalari bilan tanishtirib, ularni taqqoslashdan iborat. Mavzu asosida o'quvchilar atrof-muhitning antropogen ifloslanishi, ekologik siyosat, tabiatdan foydalanish yo'llari kabi bilimlarni egallaydilar.

„Jahon aholisi geografiyasi“ mavzusida o'quvchilar quyidagi bilimlar tizimini egallaydilar. Bular: aholining soni, aholining ko'payishi, ko'payishning birinchi turi, ko'payishning ikkinchi turi, aholining jinsiy, yosh, bilim, etnik (milliy), diniy tarkiblari, aholi- ning migratsiyasi, joylashishi va zichligi, shahar va qishloq aholisi, urbanizatsiya, aholi va atrof-muhit kabi bilim va tushunchalardan iborat. O'quvchilar darslikdagi o'nlab jadval, grafik diagramma, karta-sxemalar bilan mustaqil ishlaydilar.

Mavzuga oid ayrim jadval va boshqa ko'rgazmali materiallar o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan to'ldiriladi.

Sanoat

Jahon xo'jaligi tarmoqlari geografiyasida yetakchi o'rinni „Sanoat geografiyasi“ mavzusi egallaydi.

Sanoat geografiyasida jahonning yoqilg'i- energetika sanoati (neft, gaz, ko'mir, elektr energetika, noan'anaviy energiya manba- lari) kon, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, yengil, oziq- ovqat, o'rmon va yog'ochsozlik sanoatlarini, sanoat va atrof-muhitni o'rganish asosiy o'rinda turadi.

Qishloq xo'jaligi geografiyasi

Qishloq xo'jaligi geografiyasi mavzusi o'z ichiga qishloq xo'jaligi va atrof-muhit, yashil inqilob, dehqonchilik, chorvachilik, baliq- chilik, oziq-ovqatmas ekinlar kabi tarmoqlarni o'z ichiga oladi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarni o'rganishda o'quvchilar diqqatini „Yangi xalqaro

iqtisodiy tartib“, „Xalqaro savdo“, „Xalqaro iqtisodiy aloqalarning boshqa shakllari“ kabi tushunchalarni shakllantirishga qaratish maqsadga muvofiq.

Kursning regional qismida mamlakatlar sotsial-iqtisodiy belgilariga koʻra, yaʼni rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar belgilariga koʻra materiklar va qitʼalar boʻylab oʻrganiladi.

Osiyo mamlakatlarini (Rossiyadan tashqari) 5 ta subregionga boʻlib oʻrganish maqsadga muvofiq. Bular: Markaziy Osiyo, Sharqiy Osiyo, Janubi-sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo, Janubi-gʻarbiy Osiyo mamlakatlaridan iborat.

Qishloq xoʻjaligi geografiyasi mavzusi oʻz ichiga qishloq xoʻjaligi va atrof-muhit, yashil inqilob, dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik, oziq-ovqatmas ekinlar kabi tarmoqlarni oʻz ichiga oladi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarni oʻrganishda oʻquvchilar diqqatini „Yangi xalqaro iqtisodiy tartib“, „Xalqaro savdo“, „Xalqaro iqtisodiy aloqalarning boshqa shakllari“ kabi tushunchalarni shakllantirishga qaratish maqsadga muvofiq.

Kursning regional qismida mamlakatlar sotsial-iqtisodiy belgilariga koʻra, yaʼni rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar belgilariga koʻra materiklar va qitʼalar boʻylab oʻrganiladi.

Osiyo mamlakatlarini (Rossiyadan tashqari) 5 ta subregionga boʻlib oʻrganish maqsadga muvofiq. Bular: Markaziy Osiyo, Sharqiy Osiyo, Janubi-sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo, Janubi-gʻarbiy Osiyo mamlakatlaridan iborat.

Turli sotsial-iqtisodiy sharoitlarga ega boʻlgan mamlakatlarni quyidagi sxema tarzida oʻrganish zarur:

- a) Umumiy tavsif.
- b) Alohida yoki guruh mamlakatlarning iqtisodiy-geografik tavsifi.
- c) Xalqaro geografik mehnat taqsimotidagi oʻrni.

Guruh mamlakatlarga taʼrif berishda ularda quyidagi reja asosida taʼrif berish maqsadga muvofiq:

1. Hududi, chegaralari, tutgan oʻrni.
2. Tabiiy sharoiti va resurslari.
- 3 Aholisi.

B) Sanoati.

1. Qishloq xo'jaligi.
2. Atrof-kuhiti muhofaza qilish.

Alohida mamlakatlarni ta'riflashda rejalar davlatning jahonda tutgan o'ri, kattaligi, siyosiy kartadagi holatiga ko'ra o'zgarib turishi mumkin.

Masalan, Xitoyni o'rganishda quyidagi rejalni tavsiya qilish maqsadga muvofiq:

- © Hududi, chegaralari, geografik o'ri.
- © Aholi soni, etnik tarkibi, aholi punktlari.
- © Xo'jaligining hududiy strukturasi.
- © Ichki tafovutlari. Shaharlari.
- © Sanoat tarmoqlari.
- © Qishloq xo'jaligi, tabiiy sharoiti, dehqonchilik zonalari.

Bu rejani yirik mamlakatlar: Xitoy, Hindiston, Pokiston, Rossiya va boshqalarni o'rganishda qo'llash yaxshi natijalar beradi. Shuni unutmaslik kerakki, har bir mamlakatni o'rganishda faqat unga xos bo'lgan xususiyatlarni ajratib va bo'rttirib ko'rsatishga e'tibor berish zarur.

Rivojlanayotgan mamlakatlarni o'rganishda esa ular xo'jaligida- _gi bir tomonlama rivojlanish sabablari, iqtisodiy, madaniy qoloqlik, o'tmishda mustamlaka tizimida bo'lganligi uchun o'z sanoati, fan va madaniyatini, milliy kadrlar tayyorlash borasidagi olib borilayotgan tadbirlar haqida gapirish maqsadga muvofiq.

Kurs mazmunida geografik mehnat taqsimoti tushunchasi katta o'rin tutadi. Bu tushuncha keng ma'no va mazmunga ega.

Keyingi yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ilmiy-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy sohadagi yutuqlar geografik mehnat taqsimoti mazmuniga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Geografik mehnat taqsimoti

Mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashish va ularni ayirbosh qilishdan tortib

hududlar, iqtisodiy rayonlar ixtisosligigacha yetib boradi.

N.N.Baranskiy iqtisodiy-geografik tadqiqotlarda geografik mehnat taqsimoti tushunchasi ahamiyatiga to'xtalib, bu tushunchaning iqtisodiy geografiya uchun ahamiyatini nihoyatda katta ekanligini, lining iqtisodiy nazariya va boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog'lovchi vosita ekanligini doimo uqtirib kelgan.

Bu tushuncha kursni o'rganishning deyarli barcha mavzularida mamlakatlar, rayonlar, shaharlar xo'jaligini o'rganishda, xo'jalik tarmoqlari o'rtasidagi aloqalarni bilishda katta ahamiyat kasb etadi.

Geografik mehnat taqsimoti tushunchasi o'quvchilar bilimini ma'lum bir tizimga solishda ham yordam beradi. Uning yordamida boshqa iqtisodiy-geografik tushunchalarning shakllanishi ancha yengillashadi.

„Jahonning umumiy ta'rifi“ mavzusida geografik mehnat taqsimoti tushunchasi tarmoqlar misolida yanada oydinlashadi.

Bu qismda har bir tarmoq xususiyatlari va joylashishi chuqur o'rganiladi. Ayniqsa, tarmoqlarning iqtisodiy xaritalari va darslikdagi xilma-xil mazmundagi xaritalar hududiy ixtisoslashish va tarmoqlar geografiyasidagi iqtisodiy aloqalarni bilib olishda katta ahamiyatga ega.

**Xalqaro geografik mehnat taqsimoti tushunchasini ushbu qism mavzulari misolida shakllantirishda quyidagi savollar nuqtayi nazari-
dan amalga oshirish maqsadga muvofiq:**

- FTI ta'sirida yoqilg'i sanoati elektr energetika, mashinasoz-lik, kimyo, to'qimachilik sanoati tarmoqlari strukturasi qanday o'zgarishlar ro'y beradi.
- © Sanoatning qaysi tarmoqlari va uning joylashishi ko'proq xomashyo, energiya, mehnat, fan yutuqlariga muhtoj, qaysi tarmoqlar iste'molchi nuqtayi nazaridan joylashtiriladi?
- © FTI ta'sirida neftni qayta ishlash, elektr energetika, kimyo, metallurgiya sanoatlari joylashishida qanday o'zgarishlar ro'y beradi?
- © FTI ta'sirida qishloq xo'jalik tarmoqlarida qanday o'zgarishlar ro'y beradi?

© Donli, texnika ekinlari, chorvachilik tarmoqlarida jahon iqtisodiy aloqalaridagi eng muhim xususiyatlarni yoritib.

Jahonning ijtimoiy va iqtisodiy geografiyasini o'rganishning asosiy obyektlaridan biri mamlakatlar hisoblanadi. Mamlakatlarni o'rganishda esa asosiy obyekt, aholi va xo'jaliklar yetakchi o'rinni / egallaydi. Mamlakatlar aholisi va xo'jaligi geografiyasidagi xususiyatlarni chuqurroq o'rganishda ularning siyosiy tuzumini ham bilish taqozo etiladi. Chunki siyosat va iqtisod bir-biri bilan uzviy bog'liq jarayonlar hisoblanadi. Shu jihatdan olganda bu kurs bir vaqtning o'zida siyosiy geografiyaning ham o'rnini bosadi.

Mamlakatlar iqtisodiy tuzumi va ularni rivojlantirish omillari haqida gapirilganda, albatta, uning siyosiy ahamiyati haqida ham to'xtalish maqsadga muvofiq.

Kursni o'rganish maqsadlarida siyosiy, geografik elementlarning ham ishtirok etishi o'quvchilarni siyosiy savodxonligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Bu borada kundalik matbuot materiallari, televideniyaning roli cheksizdir.

Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi mazmuni dunyoda ro'y berayotgan kundalik matbuot materiallari bilan bog'liq. Bu materiallar darslikdagi materiallarni to'ldiradi, shuningdek, illustratsiya vazifasini ham o'taydi. Kundalik matbuot materiallaridan foydalanish o'quvchining siyosiy ongi va dunyo qarashini shakllantiradi.

Mavzu yuzasidan quidagi ko'rgazma o'quvchilarga slayd orqali namoyish etiladi:

VII-SHAHARLARNING MEHNAT TAQSIMOTIDAGI O'RNI



Faqat mahalliy aloqalarda ishtirok etuvchi shaharlar (quyi ma'muriy rayonlarning iqtisodiy madaniy markazlari)



Iqtisodiy rayonlarning o'z ichidagi mehnat taqsimotida ishtirok etuvchi shaharlar



Iqtisodiy rayonlararo mehnat taqsimotida ishtirok etuvchi shaharlar



Xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etuvchi shaharlar.

2.2 9-sinf Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fani aniq region mavzulari bo'yicha ko'rgazmali qurollardan foydalanish usullari.

Bu qismni o'rganishga kirishishdan oldin, o'qituvchi o'quvchilar oldiga quyidagi maqsadlarni:

1. Alohida mamlakatlarning iqtisodiy geografiyasiga oid xususiyatlarni.
2. Aholisi va xo'jaligiga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarni bilib olishni va esda saqlashni vazifa qilib qo'yadi.

Mamlakatlar aholisi va xo'jaligiga xos bo'lgan ba'zi xususiyatlar bilan o'quvchilar „Jahonning umumiy ta'rifl“ mavzusida tanishligi- ni e'tiborga olib, mavzuni o'rganishda ko'proq qiyoslash metodidan foydalanishni tavsiya qilish mumkin. Alohida mamlakatlarga iqtisodiy- geografik ta'rif berishda mashhur geograf-metodist N.N.Baranskiy tavsiya qilgan rejadan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir

I. Regionning umumiy tavsifi esa quyidagi reja asosida yori- tilishi maqsadga muvofiq:

1. Hududi, chegaralari, geografik o'rni.
2. Tabiiy sharoiti va resurslari.
3. Aholisi.
4. Xo'jaligi.
5. Qishloq xo'jaligi.
6. Transporti.
7. Fan va moliya sistemasi.
8. Dam olish va turizm.
9. Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik muammolar.

II. Regionlar xo'jaligi geografiyasi birmuncha chuqurroq o'rganilishi zarur. Shu tufayli region xo'jaligi quyidagi reja asosida amalga oshirilishi ko'zlangan maqsadga erishishni ta'minlaydi.

1. Rivojlanishning „Markaziy o'qi“.

2. Yuksak rivojlangan rayonlar.
3. Eski sanoat rayon lari.
4. `qoloq agrar rayonlar.
5. Yangi o`zlashtirilayotgan rayonlar.
6. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning ta`siri.

III.Xalqaro geografik mehnat taqsimotida tutgan o`rni. Mamlakatlar aholisi:

- | | |
|---------------------------------------|----------------------------|
| a) soni va tabiiy o`sishi; | f) yosh, jins tarkibi; |
| b) migratsiya; | g) bandlik strukturasi; |
| d) joylashishi; | h) etnik (milliy) tarkibi. |
| e) shahar va qishloq aholisi nisbati; | |

IV.Sanoat tavsifi:

- a) tabiiy resurslarga xo`jalik jihatdan baho berish yoqilg`i va energiya mablag`lari, rangli va qora metallurgiya uchun xomashyo, kimyo sanoati uchun xomashyolar, o`rmon resurslari, mamlakat yoki regionning tabiiy resurslar bilan ta`minlanganligi haqida umu- miy xulosalar chiqarish;
- b) xususiy mulkchilik shakllari va yirik transmilliy kompaniyalari;
- d) sanoat tarkibi;
- e) eng yirik sanoat tarmoqlari joylashishi, yirik sanoat markaz.- lari, tumanlari, hududlari va ularning ixtisoslashishi.

V. Qishloq xo`jaligiga tavsif:

- a) qishloq xo`jaligi uchun tabiiy sharoitni baholash (iqlim tipi, tabiiy zonalar, tuproqlari, qishloq xo`jaligini rivojlantirishdagi tabiiy qiyinchiliklari, qiyinchiliklarni yengishda amalga oshiradigan tad- birlar, qishloq xo`jalik tarmoqlari;
- b) agrar munosabatlar, uning qishloq xo`jaligi agrotexnik dara- jasiga ta`siri;
- d) qishloq xo`jaligi tarmoqlari tarkibi;
- e) qishloq xo`jaligi tarmoqlari joylashishi;
- f) qishloq xo`jaligi rayonlari va ixtisoslashishi.

VI. Transportiga tavsif:

a) transport turlarini rivojlantirish uchun hududining qulayligi, tabiiy sharoitining transport uchun qulay yoki noqulayligi, relyefi- ning murakkabligi;

b) transportning rivojlanish darajasi, region yoki mamlakat iqtisodida transportning oʻrni va roli;

d) yirik transport yoʻllarining joylashishi, temiryoʻl, avtomobil yoʻllarining qiyaligi, temiryoʻl tugunlari, portlar, aeroportlar va boshqalar.

VII. Region yoki mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari:

a) tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy shakllari;

b) eksport va import tarkibi;

d) tashqi savdoning asosiy yoʻnalishlari.

VIII. Region va mamlakat hududidagi iqtisodiy-geografik farqlar.

Dunyodagi yirik mamlakatlarning (rivojlangan va rivojlanayotgan) ayrimlarini oʻrganishga dasturda vaqt ajratilgan. Shu ularni birmuncha mukammalroq oʻrganishga toʻgʻri keladi. Mamlakatlarni oʻrganishni, avvalo, uning iqtisodiy-geografik oʻrnidan boshlashga toʻgʻri keladi. Bu oʻrinda oʻquvchilar quyidagi bilimlarni egallashlari zarur.

1. Mamlakatning joylashgan oʻrni, maydonining kattaligi, qaysi davlatlar bilan chegaradosh ekanligi, kartada uning hududi, chegaralarini toʻgʻri koʻrsata olishi.

2. Mamlakat iqtisodiy-geografik oʻrniga xos xususiyatlarni (qulay va noqulay tomonlarni) tushuna olishlari zarur.

Iqtisodiy-geografik oʻrniga xos xususiyatlarini oʻquvchilar bilan mustaqil oʻrganishni tashkil qilish ham yaxshi natijalar beradi. Qa- chonki oʻquvchilar bilimlarini mustaqil egallasalar, bunday bilim- lar ularning xotirasida uzoq saqlanadi.

Geografik oʻrnini oʻrganishda tabiiy kartadan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Agar mamlakat hududi 3 mln.kv.km. dan katta boʻlsa, ularni dunyo siyosiy kartasidan koʻrsatish oʻrinli. Oʻquv- chilar esa ularni atlas kartalardan topadilar. Oʻqituvchi esa mamlakat hududining shakllanishiga qisqacha toʻxtaladi.

Mamlakat maydonining kattaligi haqidagi maʼlumotlarni boshqa mamlakatlar

maydoni bilan qiyoslash orqali o'rganish samarali natijalar beradi. Masalan, Avstraliya davlati maydonining kattaligi bo'yicha dunyoda 6-o'rinni egallaydi. U bu borada Rossiya, Kanada, Xitoy, AQSH va Braziliyadan keyin turadi.

Ayniqsa, davlatlarning o'mini boshqa davlatlarga nisbatan qiyoslash yaxshi natijalar beradi.

Mamlakatning dengiz yo'llariga, jahon bozoriga chiqa olish imkoniyatlarini aytish ham juda o'rinlidir. Iqtisodiy-geografik o'rin tushunchasiga xos belgilar karta asosida, suhbat metodi yordamida o'quvchilarga yetkazilishi kerak. O'qituvchi karta asosida mamlakat iqtisodiy-geografik o'miga ta'sir qiluvchi omillarni alohida ta'kidlab o'tishi, u yoki bu omilning rolini misollar asosida tushuntirishi lozim.

Mamlakat maydonining kattaligi haqidagi ma'lumotlarni boshqa mamlakatlar maydoni bilan qiyoslash orqali o'rganish samarali natijalar beradi. Masalan, bu borada Rossiya, Kanada, Xitoy, AQSH va Braziliyadan keyin turadi.

Ayniqsa, davlatlarning o'mini boshqa davlatlarga nisbatan qiyoslash yaxshi natijalar beradi.

Mamlakatning dengiz yo'llariga, jahon bozoriga chiqa olish imkoniyatlarini aytish ham juda o'rinlidir. Iqtisodiy-geografik o'rin tushunchasiga xos belgilar karta asosida, suhbat metodi yordamida o'quvchilarga yetkazilishi kerak. O'qituvchi karta asosida mamlakat iqtisodiy-geografik o'miga ta'sir qiluvchi omillarni alohida ta'kidlab o'tishi, u yoki bu omilning rolini misollar asosida tushuntirishi lozim.

Shimoliy Afrika mamlakatlari.

IV-jadval.

Mamlakat nomi	Poytaxti	Maydoni	Aholi si	Tabiiy resurslari	Sanoat tarmoqlari	Qishloq xo'jalik tarmoqlari	Izoh
---------------	----------	---------	----------	-------------------	-------------------	-----------------------------	------

O'quvchilar ushbu jadvalni to'ldirib bo'lishgach, Sharqiy, G'arbiy, Tropik Afrika mamlakatlariga oid ma'lumotlarni mustaqil to'ldira oladigan bo'ladilar va h.k.

Kursning aksariyat mavzulari muammoli bayon metodi bilan o'qitishni taqozo qiladi. Bunda o'qituvchi muammoni qo'yadi va uni o'zi yechib ko'rsatadi. Muammoga javob izlash jarayonida o'quvchilar muammoli vaziyatga duch keladilar. O'qituvchi tomonidan qo'yilgan muammoli savolga o'quvchilardagi mavjud bilimlar yetishmasligi kerak. Agar ular bu savolga to'g'ridan-to'g'ri javob berib qo'ysalar, qo'yilgan savol muammoli vaziyat hosil qilmaydi va bu savol o'z navbatida muammoli bo'la olmaydi. Bu metodning eng ahamiyatli tomoni shundaki, o'quvchilar muammoli metod orqali muammoning ilmiy yechilish yo'llarini, bilimlarning mantiqiy aloqadorligini, butun muammoni yechishdagi bosqichlarni bilib oladilar va egallaydilar.

O'quvchilar ushbu jadvalni to'ldirib bo'lishgach, Sharqiy, G'arbiy, Tropik Afrika mamlakatlariga oid ma'lumotlarni mustaqil to'ldira oladigan bo'ladilar va h.k.

Kursning aksariyat mavzulari muammoli bayon metodi bilan o'qitishni taqozo qiladi. Bunda o'qituvchi muammoni qo'yadi va uni o'zi yechib ko'rsatadi. Muammoga javob izlash jarayonida o'quvchilar muammoli vaziyatga duch keladilar. O'qituvchi tomonidan qo'yilgan muammoli savolga o'quvchilardagi mavjud bilimlar yetishmasligi kerak. Agar ular bu savolga to'g'ridan-to'g'ri javob berib qo'ysalar, qo'yilgan savol muammoli vaziyat hosil qilmaydi va bu savol o'z navbatida muammoli bo'la olmaydi. Bu metodning eng ahamiyatli tomoni shundaki, o'quvchilar muammoli metod orqali muammoning ilmiy yechilish yo'llarini, bilimlarning mantiqiy aloqadorligini, butun muammoni yechishdagi bosqichlarni bilib oladilar va egallaydilar.

Afrika materigi mamlakatlari bo'yicha ayrim muammoli savol- lardan namunalar keltiramiz.

1. Saxel zonasida har 10 kishidan 9 kishining hayoti ovqat pishirish, uyni isitish uchun o'tin terish bilan bog'liq. Ayollar va bolalar yilning 100 — 300 kunini shox-shabba hamda xazon to'plash bilan o'tkazadilar. Sizningcha kelajakda Saxelda bu holat takrorlanmasligi uchun qanday chora-tadbirlar ko'rish kerak deb

o‘ylaysiz. O‘z loyihangizni asoslab bering.

2. Nima sababdan Tropik Afrika tabiiy resurslarga boy bo‘lishiga qaramasdan kontinentdagi eng kambag‘al mamlakat shu regionga to‘g‘ri keladi?

3. Nima sababdan Afrikada aholining okean va dengiz bo‘ylarida joylashishi Xorijiy Osiyo mamlakatlari darajasida emas. Buning sababini tushuntiring.

Muammoli metodning eng muhim xususiyatlaridan biri qo‘yilgan savolni yechish uchun gipoteza (faraz) tuzishdan, ushbu g‘oyani yechish yo‘llarini izlash, xulosalar qilishdan iborat. O‘qiluvchi muammoni qo‘yadi, farazni tushuntiradi, xayolan eksperiment qilib ko‘radi, uni yechishning turli variantlarini ilgari suradi va xulosalar qiladi. Nihoyat qadamba-qadam muammoni yechish yo‘llariga erishadi. O‘quvchilar esa yechimning mantiqiyligini kuzatadilar, ilgari surilgan g‘oyalarning to‘g‘riligini nazorat qiladilar, isbot va dalillarning naqadar puxtaligini yana bir bor tekshirib ko‘radilar. Va shu tariqa bu metodning afzalligini, dars materialini o‘zlashtirishdagi rolini bilib oladilar.

Jahon iqtisodiy geografiyasini o‘qitishda tadqiqot metodi ham alohida o‘ringa ega. Tadqiqot metodi eng muhim funksiyalarni bajaradi. Bu metodning asosiy maqsadi o‘quvchilarda u yoki bu muammoni yechishda izlanuvchanlik, ijodiy faoliyatni rivojlantirishdan iborat.

O‘quvchilar fan va jamiyat tomonidan yechilgan, ammo o‘quvchilar uchun notanish bo‘lgan muammolarni yechadilar.

Tadqiqot metodida tavsiya etiladigan topshiriqlar shaklan xilma- xil bo‘lishi mumkin. Bunday topshiriqlar qisqa vaqtda yechiladigan, uyga vazifa qilib beriladigan, butun bir darsni egallaydigan, hatto ma’lum bir davr (hafta, oy) talab qiladigan topshiriqlardan ham iborat bo‘lishi mumkin.

Qisqasi, tadqiqot metodi asosida bajariladigan har bir topshiriq ma’lum bosqichlarda amalga oshirilishi yoki bajarilishi mumkin. **Bu bosqichlar quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:**

1. U yoki bu hududdagi iqtisodiy jarayonlarni, hodisalarni, faktlarni kuzatadi.
2. Tadqiqot etilishi lozim bo‘lgan noma’lum yoki noaniq hodisalarni (muammolarni) aniqlash.

3. Farazlarni (gipotezani) ilgari surish.
4. Tadqiqot rejasini tuzish.
5. Tadqiqot rejasini amalga oshirish. O'rganilayotgan muammoning boshqa obyektlar, hodisalar bilan aloqadorligini aniqlash.
6. Tadqiqot yechimini tushuntirish.
7. Yechimining to'g'riligini tekshirib ko'rish.
8. Tadqiqot jarayonida olingan bilimlarning amaliy ahamiyatini va uning qo'llanilish sohalarini aniqlash.

Bilimlarni egallashda tadqiqot metodi o'quv materialining mazmunini yechishga qaratilgan bo'lishi kerak. Masalan:

1. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda regional siyosatning 4 ta asosiy yo'nalishini Afrika mamlakatlariga qo'llash qanday oqibatlariga yoki boshqa jarayonlarga olib kelishi mumkin?
2. Afrikaning eng shimoliy nuqtasidan janubiy nuqtasigacha (xaritada) temiryo'l yo'nalishini ko'ring. Uni ko'rish jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch kelinadi. U qaysi mamlakatlar hududidan o'tadi va h.k.
3. Olgan bilimlaringiz asosida ishlab chiqarishni joylashtirish jihozlarini har bir omilning ta'sirini jadval ko'rinishida tasvirlang.


2.3 9-sinf Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.


Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari.

Hozirgi kunda ta'lim tarbiya jarayonida zamonaviy o'qitish metodlari - interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoyat kattadir. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, "... yurtimizda mavjud bo'lgan o'n mingga yaqin umumta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta'lim jarayonining mazmunini tubdan takomillashtirish, o'qituvchilarning mehnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha katta ishlar qilinmoqda". Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar talabi - talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishliklarini ta'minlaydi. Mazkur bo'limda innovatsion texnologiyalar haqida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Umumiy ta'lim muassasasi o'qituvchisining innovatsion faoliyatini jadval shaklida quyidagicha tasvirlash mumkin.

VIII-O'qituvchi innovatsion faoliyatining bosqichlari





Zamonaviy o'qituvchi ta'lim – tarbiya jarayonida innovatsion usullardan foydalana bilishi va amalga oshira olishi lozim.

Bu jarayonda o'qituvchiga qo'yiladigan talablar:

- innovatsion texnologiya tushunchasini, uning mazmun mohiyatini bilishi;
- innovatsion texnologiyalarning ta'lim maqsadini amalga oshirishdagi o'rni va rolini bilishi;
- innovatsion texnologiyalarni fanlar bo'yicha qo'llash printsiplarini bilishi;
- ta'limiy va ishchanlik o'yinlarini bilishi;
- muammoli rivojlantiruvchi ta'lim metodlarini bilishi;
- talabalarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish va ta'minlash yo'llarini bilishi;
- talabalarning o'z ustida mustaqil ishlash mahoratini oshirish usullarini egallashi;
- ko'rgazmali o'qitish usullarini bilishi va egallashi;
- ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llab, namunaviy imitatsiya o'quv mashg'ulotlarini o'tishi;
- ta'lim-tarbiyaning faollashtiruvchi usullarini bilishi va egallashi kerak. Uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi.

IX-Innovatsion texnologiyalar.

Innovatsion texnologiyalar - pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik hamda o'zgarishlar kiritishdir.

Innovatsiya - inglizcha so'z bo'lib, «yangilik kiritish» degan ma'noni anglatadi.

Innovatsiya – ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimi bo'lib, kutilayotgan natijalarga olib keladigan yangiliklar tizimini tashkil etadi.


Interaktiv (ingl. Interaction-o'zaro ta'sir) **metodlar** – bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogic ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyatko'rsatishi orqali amalgam oshiriladi.

O'qitishning interfaolligi – o'quvchining bilish faoliyatini faollashtirish va o'zaro ta'sir asosida tayyorgarlik samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biridir.

Interfaol mashg'ulot - o'qituvchi va talabalar o'zaro faol ishtirok etadigan mashg'ulot, jarayon hamkorlikda kechadi.

Interfaol metodlar o'qituvchi bilan talabaning faol munosabati, bir-birini to'liq tushunishga asoslanadi. Interfaol metodlarni o'quv jarayoniga joriy etishning tub maqsadi – dars qaysi shaklda bo'lmasin, qayerda o'tkazilmasin darsda o'qituvchi bilan talabaning hamkorlikda ishlashini va natijada o'zlashtirishlarini ta'minlashi lozim. Bunda o'qituvchi faqat fasilitator (yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, kuzatuvchi, xulosalovchi) vazifasini bajaradi. Ushbu metodlar orqali talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlantirilib, ularda erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hissiyotlarni boshqara olish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorlanadi

X-Interfaol usullarning maqsad va vazifalari.



Dars jarayonida axborot kommunikatsiyalar texnologiyalaridan foydalanishning istiqbollari

Darhaqiqat, shunday zamonlar bo'lganki, odamlar 1961 yilda inson fazoga chiqishi to'g'risida, kompyuterlar bir necha yillar davomida qilinadigan ish hajmini soniyalar davomida bajarilishini, fan va texnologiyalar hozirgi kunlarda qo'llanilayotgan qamrovlarda tadbiq etilishi haqida tasavvur ham qila olishmagan. Bu davr mobaynida rivojlangan mamlakatlarda kapital qo'yilmalar yiliga 3% dan ortiq o'smagan, lekin fan sohasidagi tadqiqotlarga qo'yilmalar yiliga 6-15 %ga o'sgan.

Ma'lumki, XXI asrda dunyoda aholi soni ortib, Ularning ehtiyojlarini qondirish global muammolardan biriga aylangan. Kishilik jamiyatida axborot almashinuvi tobora tezlashib, yer yuzi aholisining turmush tarzida ham o'xshashlik ortib bormoqda. Dunyoda jamg'arilgan axborot va bilimlarning 90 %i keyingi o'ttiz yil mobaynida yaratilgan. Axborot va bilimlar hajmining kundan-kunga ortib borishi dunyo xalqlarining ijtimoiy hayotida jumladan, ta'lim tizimida ham axborot kommunikatsiyalari texnologiyalaridan keng ko'lamda samarali foydalanishni talab etmoqda.

Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning o'rni beqiyosdir. Misol uchun, mutaxassislarning fikricha iqtisodchilarning zarur paytda axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanib, axborotga erkin kirib borishi sanoat rivojlanishi sharoitida bozor iqtisodiyoti samaradorligining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Ularning faoliyati va jamiyat ishlab chiqarishning asosiy sohalari u yoki bu ma'noda axborot bilan bog'liq bo'lib, ish bilan band bo'lganlarning 40-60 % ini tashkil qiladi. Axborot xizmatlari jahon yalpi ijtimoiy maxsuloti va milliy daromadining 10 % ini tashkil etmoqda. SHundan 90 % i AQSH, YAponiya va G'arbiy Yevropa hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Dunyo miqyosida shaxsiy kompyuterlarning ommaviy ravishda ishlab chiqarilishi, ayniqsa axborot texnologiyalari sanoati uchun keng imkoniyatlar ochib bermoqda. Shaxsiy kompyuterlar inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga kirib bormoqda, hamda mutaxassislarning bilimlar manbaiga kirib borishi va uni bevosita qayta ishlash jarayonida qatnashish imkoniyatlari ortib bormoqda.

Ta'lim tizimida axborot - kommunikatsiyalar texnologiyalarining qo'llanilishida shaxsiy kompyuterlarning tutgan o'rni oshib bormoqda. 2000 yilda AQSHda 1000 kishiga 500 ta kompyuter to'g'ri kelgan bo'lsa, axborotlashgan iqtisodiyot hali kirib bormagan mamlakatlarda ahvol ancha jiddiy. Braziliyada –24, Rossiyada –31, Turkiyada –20, Hindistonda –3 taga to'g'ri kelmoqda. Internet

orqali savdo-sotiq qilish kundan-kunga ortib bormoqda. AQSHda shaxsiy kompyuteri internet tizimiga ulangan oilalarning 47 % i elektron magazinlardan tovarlar sotib olishmoqda. Axborotlashgan iqtisodiyot yangi ish o'rinlarini barpo etmoqda. Xizmatchilar o'z ish joyini AQShda o'rta hisobda 4 yilda, Yevropada esa 8 yilda o'zgartirib turadi. Bunday sharoitda uzluksiz ta'limni axborot kommunikatsiyalar texnologiyalarisiz yo'lga qo'yishning iloji bo'lmaydi. AQSh universitetlaridagi professorlarning 85 % ini hindistonliklar tashkil etadi. Bu yutuqlarga erishishda ularning aniq fanlarni chuqur bilishi, chet tillarni mukammal o'rganganliklari hamda axborot kommunikatsiyalar texnologiyalarini ta'lim sohaslarida samarali qo'llayotganliklarining natijasi deb aytish mumkin.

Hozirgi kunda ta'lim sohasiga internet, elektron tijorat, virtual ta'lim, masofadan o'qitish va virtual stend texnologiyalari kirib kelmoqda, hamda ularning o'rni muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning istiqbollari quyidagilardan iborat:

- mutaxassis dunyoda bo'layotgan fan yangiliklaridan tezda xabardor bo'ladi;
- tinglovchilar eng yuqori darajada tasavvur hosil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi;
- masofadan turib ham malaka oshirish imkoniyatlarining mavjudligi.

Interfaol metodlarda o'qitishning mohiyati quyidagicha:

- o'rgatuvchi ham o'rganuvchi ham ma'lumotlar bilan faol ishlashi;
- talabalarni mustaqil fikrlashga undashi va o'rgatishi;
- o'qituvchiga «talabalarni fikrlashga o'rgatish uchun» xizmat qilsa, talabalarga esa, «fikrlashni o'rganishlari uchun» xizmat qilishi;

Interfaol usullardan foydalanish shakllari:

1. Individuallashtirish;
2. Kichik guruhlariga ajratish;

3. Tabaqalashtirish:
4. O'rgatish va o'rganish jarayonida demokratik, do'stona muhitni yaratish;
5. O'zaro muloqot, hamkorlikni tashkil etish.

Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi darslarida interfaol usullarni qo'llash

Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish, talabalarga berilayotgan nazariy bilimlarni interfaol usullarni qo'llash orqali o'tish maqsadga muvofiqdir.

Masalan: Pedagogik texnologiyaning mohiyati, maqsadi hamda ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish, mavzularni o'tishda FSMU texnologiyasi usulini qo'llash mumkin.

F- ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish lozim.

S- Pedagogik texnologiya talabani mustaqil o'qishga va mustaqil fikrlashga o'rgatishni kafolatlaydi.

M- Pedagogik texnologiyani qo'llash jarayonida faolligi oshadi, o'zini erkin his etadi, o'qituvchi-talaba o'rtasida demokratik muhit vujudga keladi.


U-SHu sababli pedagogik texnologiyadan foydalanish davr talabidir.

Pedagogik texnologiya tushunchasi «klaster» usulini qo'llagan holda tarmoqlarga ajratiladi. An'anaviy va zamonaviy ta'limning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilishda «Veeyr texnologiyasi» usulidan quyidagicha foydalanish mumkin.

V-jadval.

An'anaviy ta'lim		Zamonaviy ta'lim	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi

Tinglovchilarni faollashtirish uchun an'anaviy va muammoli ta'limni taqqoslash yoki tahlil qilishda «Venn diagrammasi» usulidan foydalanish tavsiya qilinadi.



Darsni tashkil etishda auditoriyaning fazoviy joylashuvi ahamiyatini «Qarorlar shajarasi» usuli orqali tahlil qilish tinglovchilarga muammoli vaziyatlarda qarorlar qabul qilish malakalarini takomillashtirishga yordam beradi. Bu usulni quyidagicha qo'llash mumkin.

VI-jadval.

An'anaviy holat		«Men-o'yinda» holati		“Men munozarada”		“Men hamkorlikda”	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi i	Kamchiligi ligi

«Sinkveyn» usuli tinglovchilarda ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Masalan: «Urbanizatsiya» mavzusini o'rganishda quyidagicha «Sinkveyn» yozdirish mumkin.

VII-jadval.

Hudud	Aholi
Butun dunyo	Insonlar, dunyo aholisi
mamlakat	Aholi punktlari
Shahar va qishloq	Urbanizatsiya darajasi
Joy	fuqarolar

Yuqorida qayd etilgan interfaol usullar tinglovchilarning mustaqil ta'lim olish jarayonida o'z samarasini beradi, ularning kasbiy-metodik mahoratlarini takomillashtiradi.

III BOB. 9-sinf geografiya darslarida ko'rgazmalilik uslubining amaliy ahamiyati.

3.1 Muayyan mavzu bo'yicha ko'rgazmali I-soatlik dars bayoni.

Mavzu: . Hindiston: iqtisodiy-geografik tavsifi

I.Darsning maqsadi:

a) Ta'limiy : O'quvchilarga Hindistonning hududi geografik o'rni resurslari haqida ma'lumot berish.Hindistonning aholisini tasnifi..

b) Tarbiyaviy: O'quvchilarni darslikdan tashqari adabiyotlarni o'qishga da'vat etish: o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash: jamoa bo'lib ishlash , o'zaro yordam va berilgan vazifani bajarishda ma'suliyat sezish ko'nikmalarni tarkib toptirish.O'z ajdodlariga bo'lgan g'ururini oshirish.

c) Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, nutq madaniyatini o'stirish, o'z-o'zini boshqarishga o'yunaltirish, hozirjavoblik, topqirlik xususiyatlarini rivojlantirish.

II.Darsning jihozi:

Dunyo siyosiy xaritasi, atlas ,yozuvsiz xarita, proektor, kompyuter, prezentasiya, .

Darsning tipi: Aralash

Darsning turi:noan'anaviy.Konferensiya

Darsning metodi: “ Aqliy hujum” , guruhlar bilan ishlash”.

Darsning rejasi

- 1.O'qituvchining kirish so'zi (3 daqiqa)
- 2.Guruhlarga bo'linish (2 daqiqa)
- 3.Uyga vazifa so'rashda ijodiy topshiriq (15 daqiqa)
- 4.Yangi mavzuni prezentasiyasi.(15 daqiqa)
- 5.Darsni mustahkamlashda 3 topshiriq berish.(5 daqiqa)
- 6.Rag'batlantirish (3 daqiqa)

7.Uyga topshiriq berish (2 daqiqa)

Darsning tashkil etilishi:

- a) salomlashish, davomatni aniqlash:
- b) o`quvchilarni darsga hozirlab, jonli muhit yaratish:

O`quvchilarni 3 guruhga bo`lish.

I guruh “Dehli”

II guruh “Mumbay”

II guruh “Kalkutta”

O`quvchilar bilan birgalikda guruhlarda ishlash uchun amal qilinishi lozim bo`lgan qoidalar ishlab chiqiladi :

Har bir guruhga Yaponiyani xo`jaligi mavzu yuzasidan topshiriq beriladi

1 .Guruh. . Yaponiya “Iqtisodiy mo`jizasi va yoqilg`I energetika sanoati haqida ma`lumot bering

2.Guruh. Avtomobilsozlik, qishloq xo`jaligiga ta`rif bering

3.Guruh.Transport va ichki –hududiy tafovutlari haqida gapirib berin

Har bir to`g`ri javob uchun guruh a`zolari jahon davlatlari bayroqlari, maketi bilan rag`batlantirib boriladi.


Yangi mavzu prezentasiyasi:

Slaydlar namoyishi.

Mavzuni qisqacha bayoni.

Hindiston madhiyasi janaglaydi.

1.Slayd :Hindistonning haritadagi o`rni ko`rsatiladi.



2.Slayd: Hindiston poytaxti-Nyu Dexli shahri.Katta shaharlari Mumbai, Kalkutta, Haydarabod haqida gapirilib o`tiladi.

3.Slayd: Tabiiy geografik o`rni.

Hindiston Respublikasi
Osiyoni janubida joylashgan
davlat. Umumiy yer
maydoni – 3287590 kv. km.
Quruqligi maydoni –
2973190 kv.km, daryo va
ko`llar maydoni – 314400
kv.km.



**4.Slayd: Hindiston
chegaralari**

Hududi asosan, ulkan
uchburchak shaklida bo`lgan yarimorollarda joylashgan, u shimoldan janubga 3,2
ming km., g`arbdan sharqqa 2,9 ming km. masofaga cho`zilgan. Hindiston

Pokiston, Tojikiston, Xitoy, Nepal, Butan, Myanma, Bangladesh davlatlari bilan chegaradosh. Hindistonni g`arbdan – Arab dengizi, sharqdan – Bengal qo`ltig`i, janubdan – Hind okeani yuvib turadi.

5.Slayd: Davlat ramzlari

1950 yil 24 yanvarda Hindiston davlat madhiyasi qabul qilindi. Davlat madhiyasini Robindranat Tagor yozgan .U qushiqqa “Jana-gana-mana” deb nom bergan.




सत्यमेव जयते



6.Slayd: Maxatma Gandi

Moxandas Karamgand “Maxatma” Gandi 2 oktabr 1869 yil Porbandarda tug`ilgan. Xindiston mustaqilligi uchun kurashgan inson.



7.Slayd: Davlat tuzum Hindiston federativ respublika. Uni tarkibida 28 ta shtat va 7 ta birlashgan territoriyalar bor. . Davlat boshlig`i – president 74 yoshli Pratibxa Patil.Hindiston tarixida birinchi marta davlat tepasiga ayol kelishi.



8.Slayd: Hindiston prezidenti

9.Slayd: Tabiiy resurslari

Hindiston tabiiy resurslari bo`yicha dunyodagi eng boy mamlakatlardan biri hisoblanadi. Bu yerda ko`mir – Sindiri, Durgapur, Neyveli, Korba (jahon qazilma boyliklarining 4/1 qismi) shaharlarida; temir rudalari – Rourkela shahri yaqinida, Marmagan, Mangaluru, Bxilai, Bayladila shaharlari yaqinida; marganes rudalari – Balaghat, Rourkela shaharlari; tilla, neft va gaz - Digboy, Bombay – Xay, Ahmadobod, Ankleshvar; alyuminiy rudalari – Amarkantak, Kalpakkam, Jabalpur, Sangraul, Mitxapur; polimetall rudalari – Udaypur; xrom rudalari – Mangaluru, Kalkutta shahri Mitxapur; polimetall rudalari – Udaypur; xrom rudalari – Mangaluru, Kalkutta shahri yaqinida; osh tuzi – Mitxapur shahri yaqinida, Vadodara shahri yaqinida; slyuda – Jaypur va Udaypur shaharlari orasida, Chittaranjar; olmos – Panna; uran rudalari – Bixar shtatida, Jamshedpur shahri

yaqinida; fosforitlar –
Udaypur; grafit –
Balangir; mis rudalari –
Jamshedpur, Kxetri;



10.Slayd: Hindiston aholisi

Aholisi soni 1,1 mlrd kishi (2006 y.). Aholi soni Xitoydan keyin ikkinchi o`rinda turadi. Agar aholising hozirgi o`shish sur`atlari saqlanib qolsa, BMT hisobi bo`yicha , 2025 – yilda 1,4 mlrd. kishiga yetadi.



11.Slayd: Hindistonning o`quvchilari



12.Slayd: Etnik tarkibi


Etnik tarkibi: Hindistonda bir necha yuz millat, xalq va qabilalar mavjud .Mamlakatdagi asosiy millatlarni hindlar, bengallar, bixarlar, panjobliklar, tamillar, kashmirliklar va boshqalar tashkil qiladi.



13.Slayd: Hindiston aholisining o`rtacha zichlik ko`rsatkichlari juda yuqori – 1 km² maydonga 330 kishidan to`g`ri keladi. Shu sababli Hindistonda aholi o`shining sekinlashishiga xizmat qiladigan demografik siyosatni olib borishga to`g`ri keldi. Hozir mamlakat aholisining 26% shaharlarda yashaydi. Hindiston ko`p millatli davlatdir; juda ko`p hindular, teluglar, maratxalar, bengallar, bixarlar, tamillar, gudjartlar, kannara va ho kazolar. Shahar aholisi 25.7 % (1993 y.).

14.Slayd: Hindiston tabiati






15.Slayd: Aholining diniy tarkibi

Aholining 80 foizi induizm diniga mansub.Ikkinchi o`rinni islom dinigamansub aholi egallaydi.Ular mamlakat aholisining 100 mln.dan ko`proq qismini tashkil qiladi.Jammuva Kashmir shtatlar aholisining 2/3 qismiislom diniga mansub.Shuningdek Hindistonda 18 mlnXristianlar, 15 mln,sikxlar, 5 mln buddizm va boshqadin vakillari ham yashaydilar.

16-25 Slaydgacha Hindistonning tarixiy obidalari.



Yangi mavzuni mustahkamlash.

Proektor orqali 3 ta guruhga 3 topshiriq namoyish qilinadi. Har bir guruhdan bittadan o`quvchilar tirib javob beradilar .Dars yakunida o`quvchilar baholanadi.

Uyga vazifa:

Mavzuni o`qib, Hindiston haqida qiziqarli ma`limot to`plab kelish, yozuvsiz xaritaga Hindistonni tushirish .

Xulosa.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilingan kundan boshlab xalq ta'limiga ham e'tiborgaqaratildi. "Talim to'g'risida" gi qonun qabul qilindi. Barcha fanlar qatori "Maktab geografiyasining qayta qurushning ilmiy-uslubiy konsepsiyasi" ishlab chiqildi.

"Biz barpo etayotgan yangi jamiyat yuksak ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga tayanadi va ularni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Bu jarayon milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasiga, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga asoslanadi.

Jamiyatni ma'naviy yangilashdan ko'zlangan bosh maqsad yurt tinchligi, vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ko'p-ko'p muhim masalalardan iborat", -degan edi Ozbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov.

Demak xulosa qilib aytadigan bo'lsam, bu mavzuimning kirish qismida geografiya darslarida foydalaniladigan o'quv qurollari va ulardan foydalanish usullari haqida va ulardan darsdagi tutgan o'rnini yoritib o'tganman. Yana geografiya darslarida ko'rgazmali qurollardan foydalanish dars jarayononi yanada qiziqarli o'tishidagi sabablarini ko'rsatib o'tganman. Kurs ishimning I bobida maktab geografiya darslarida ko'rgazmali qurollardan foydalanish haqida so'z ketgan. Bobdan kelib chiqqan holda bo'limlarini sinflar qatorida yoritishga harakat qildim. Har bir sinfga alohida to'xtalib, amaliy ishlar va kartalar orqali ko'rsatib o'tdim. Sinflar kesimida olganimda albatta o'quvchilar yoshlarini hisobga olgan holda ko'rgazmali qurol tanladim. Har bir sinf uchun albatta birinchi qurol bu darslik hisoblanib, darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash mavzusini ham yoritib o'tdim

Geografiya ta'limida o'quvchilarni geografiyaga qiziqitira olish katta ahamiyatga ega. O'quvchilar geografik bilimlarini qiziqish bilan o'rgansalar bilimlar puxta bo'ladi. Bilishga qiziqish o'quvchilar tafakkurini faollashtiradi, xotirani kuchaytiradi, fikrni rivojlantiradi.

O'quvchilarni fanga qiziqtirish maqsadida, tabiiy geografiya kurslarida geolgik va geografik mazmundagi fan yangiliklari, mamlaktlar erishgan va erishayotgan yutuqlar, iqtisodiy ahvoli haqida ma'lumotlarga ega bo'lishda geografiya o'qituvchisi uchun ko'rgazmali qurol talab qilinadi.

Xususan, ajoyib, antiqa va qiziqarligeografik ma'lumotlar o'quvchilarda hayajon, ko'tarinki ruh, qiziqish uyg'otadi, fikrni faollashtiradi.

II bobda esa diplom ishim mavzusining to'laroq yoritib, muayyan mavzuni ko'rgazmali qurollarda ko'rsatib o'tdim. Bunda men turli xil metodlardan foydalanib jadval, atlas, ko'rgazmali qurollardan foydalandim. Bobni uchta rejadan iborat qilib tuzdim va birinchi rejada 9-sinf Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fani umumiy mavzulari bo'yicha ko'rgazmali qurollardan foydalanish usullari haqida aytib o'tdim. Ikkinchi rejamda esa aniq region mavzu bo'yicha aytib o'tdim. Uchunchi rejamda 9-sinf Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishda jadvallar asosida ko'rsatdim.

Diplom ishi mavzusini yiritib bo'lgach, III bobda muayyan mavzu bo'yicha I-soatlik dars bayonini amaliy ahamiyatini yozdim.

Xullas "Geografiya darslarida foydalaniladigan ko'rgazmali qurollar va ulardan foydalanish usullari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimni yakunlar ekanman, men shunday xulosaga keldim. Har qanday o'qituvchi dars jarayonida turli xil ko'rgazmali qurollardan foydalansa ko'zlagan maqsadiga erishadi.

Kurs ma'lumotlari o'rta maktab geografiya kursiga bog'liq holda didaktikaning "oddiydan - murakkabga" degan tartibiga asoslanib, Jahon davlatlarining geografik o'rni, siyosiy xaritasini o'rganishdan boshlanadi va har bir iqtisodiy rayon va ularning respublikada tutgan o'rnini, tashqi iqtisodiy aloqalarini o'rganish bilan tugallanadi.

Ushbu kursdan o'quvchilar mamlakatlarning jahon siyosiy xaritasidagi o'rni, sanoati, qishloq xo'jaligi, transport tarmoqlari, aholi joylashuvida tabiiy sharoit va omillarning o'rni, hududiy iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik muammolari va ularni hal qilish yo'llarining geografik jihatlarini ochib berishlari lozim bo'ladi.

Kurs ishini bajarishda geografik o'rin, tabiiy resurslar, xo'jaligi, servis sohasi, har bir iqtisodiy rayon, viloyatlar va ularning respublikada tutgan o'rini auditoriya darslarida batafsil o'rganadilar. Kurs ishini yozishda kirish, boblar va paragraflar, xulosa qismi, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati tartibi ko'rsatildi.

Adabiyotlar ro'yhati.

1. Karimov I.A O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.O'zb – n. 1997 y
2. “O'zbekiston Respublikasi ta'lim qonuni”. Toshkent, 1992 yu
3. “O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni va kadrlar tayyorlashg milliy dasturi”. Toshkent, 1992 y.
4. Abirqulov Q.N, Jumaev T, Rajabov N. “Iqtisodiy geografiya” T. 2000 y.
5. Abirkulov Q “Iqtisodiy geografiya.” T.2004 y. 21-43 betlar.
6. Abirqulov Q. “Jahon mamlakatlari iqt. va ijt geografiyasi” .T. 2006 y.
7. Boltaev M.J. Chet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi. Ma'ruzalar matni. T. 2000.
8. Soliev A.S. “Iqtisodiy geografiya” T. 1999 y.
9. Soliyev A.S. “Shaharlar geografiyasi”. T. 2000 y.
- 10.O.Mo'minov “Geogfafiya ta'limi metodikasi” T 1986 y.
- 11.Qurbonniyozov R. “O'quvchilar bilim va ko'nikma va malakalarini tekshirish shakllari va metodlari” T. O'qituvchi 1993 y.
- 12.Qurbonniyozov R. “Geografiya ta'limi metodikasi”. Toshkent, 1993 y.
- 13.Qurbonniyozov R. “O'zbekiston geografiyasi” qiziqarli savol va topshiriqlar. Toshkent. O'qituvchi, 1997 y.
- 14.Qurbonniyozov R. Eshchonov G. “Geogafik madaniyatni shakllantirish” Urganch, 1998 y.
- 15.Ergashev Sh. Jahon mamlakatlari. T.Sharq. 2006 y.
- 16.A.Qayumov, I.Safarov, M.Tillaboyeva “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma T 2002 y.
- 17.M. Asomov, T. Mirzaliyev “Topografiya asoslari va kartografiya” T.1985y.
- 18.Vahobov X., Abdunazarov O'., Zaynitdinov A., Yusupov K. Umumiy yer bilimi. T., Bilim nashriyoti., 2005y
- 19.O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
20. Atlas. 9-sinf. T-2008 y